



Бош илмий-методик
марказ

FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



**“XARAKATLAR STRATEGIYASI-
O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOT
YANGI BO‘QICHINING ASOSI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV –USLUBIY MAJMUUA

**B.G‘aniev FarDU, Fuqarolik
jamiyat kafedrasi mudiri,
dotsent, f.f.b.f.d. (PhD)**

2022

Modulning ishchi dasturi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan va FarDU Ilmiy kengashining 2021 yil «30» dekabrda 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **B.G'aniev FarDU, Fuqarolik jamiyat kafedrasini mudiri, dotsent, f.f.b.f.d. (PhD)**

Taqrizchilar: **N.Hakimov Toshkent Iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori**
G.Ro'ziyeva O'zbekiston Milliy universiteti professori, falsafa fanlari doktori

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAL TA‘LIM METODLARI.....	15
III. NAZARIY MA‘LUMOTLAR.....	17
IV. AMALIY MA‘LUMOTLAR.....	85
V. KEYSLAR BANKI	95
VI. GLOSSARIY.....	96
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	100

I.ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, zamonaviy konsepsiyalarini, tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu ijobiy jihatlari (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e‘tiborga olishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda **“Xarakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi”** moduli aynan Oliy ta’lim tizimida “Fuqarolik jamiyati”, “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” “Milliy g‘oya. Fuqarolik jamiyati” fanlaridan dars beradigan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishgamuljallangan.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Xarakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi mutaxassislik fanlari blokidagi asosiy modullardan biri bo‘lib, unda fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalar, erishilgan yutuqlar, istiqboldagi vazifalarni, “Harkatlar strategiyasi” asosiy yo‘nalishlarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish va uni o‘qitish sohasidagi tajribalarni

umumlashtirish, mavjud muammolar, ularning echimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan.

Modulning vazifalari:

- Zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik
- Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oya, nazariya, yondoshuv va zamonaviy konsepsiyalarining, asosiy yo'nalishlari to'g'risida tushunchalar berish;
- oliy ta'lim muassalari pedagog kadrlarini Fuqarolik jamiyati qurish sohasidagi yangi g'oya, yondoshuvlar va erishilgan yangiliklar bilan tanishtirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Xarakatlar strategiyasi - O'zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi:

- fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oya va nazariyalar evolyusisining asosiy yo'nalishlarini
- fuqarolik jamiyati zamonaviy konsepsiyalarining mazmun mohiyatini;
- O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakillnaishi va rivojlanishi bo'yicha jahon xamjamiyatidagi erishilgan yutuqlarni;
- yangi innovatsion, pedagogik texnologiyalarni va ularning xalqaro qiyosiy tahlilini;
- O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sohasiga oid yangi nazariy qarashlar va konsepsiyalarni, ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishni;
- O'zbekistonda fuqarolik jamiyati sohasiga oid nazariy va amaliy masalalarini echishi, yangi texnologiyalarni va dasturlar paketlarini qo'llashni;
- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar tadqiqot qilishi va ishlab chiqishni *bilishi zarur*;

Tinglovchi:

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- fuqarolik jamiyati sohasida axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashi hamda ulardan amaliy foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- yangi g'oyalarni yaratish va ilmiy-tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish

qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:*

Tinglovchi:

- tinglovchilarni o'ziga jalb qilgan xolda yangi pedagogik texnologiyalar asosida fanni tushuntirish;
- fuqarolik jamiyatini qurish sohasi bo'yicha faoliyatning ilmiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida faol ishtirok etish;
- soha bo'yicha jahon tajribalarini tahlil qilish uchun xorijiy tillardan birida erkin co'zlashuv *malakalarga ega bo'lishi kerak:*

Tinglovchi:

- zamonaviy va innovatsion ta'lim muhitini boshqarish;
- fuqarolik jamiyati bo'yicha zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- fuqarolik jamiyati sohasi bo'yicha tinglovchilarning izlanishli-ijodiy faoliyatga jalb etish *kompetensiyalarni egallashi lozim.*

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Xarakatlar strategiyasi - O'zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi” moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limining zamonaviy usullari, kompyuter texnologiyalari, internet tarmog'idan olingan yangiliklarni qo'llash usulidan foydalaniladi. Ma'ruza darslarida prezentatsiya usulida, amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, Xulosalash metodi, SWOT tahlili kabi usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda sohadagi yangiliklar bilan tanishish, ulardan ta'lim muassasasida mutaxassislarga bilim berishda foydalanish ko'zda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Xarakatlar strategiyasi - O'zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi” moduli o'quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalar bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunda modulning bakalavr bosqichi 1 blok fanlarining bog'liqligi e'tiborga olinadi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

“Xarakatlar strategiyasi - O‘zbekiston Milliy taraqqiyoti yangi bosqichining asosi” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg‘or tajriba va yangiliklarni o‘rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil ta’lim
			jami	jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	“Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovatsion rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar	4	4	2	2		
2.	Taraqqiyotning innovatsion modeli	4	4	2	2		
3.	O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari	4	4	2	2		
4.	“Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati	6	6	4	2		
5.	“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalar - O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiq etishning asosi	8	8	4	4		
Jami:		26	26	14	12		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Rivojlanish”, “Strategiya”, “Konsepsiya” va “Innovatsion rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar

Reja:

1. “Rivojlanish”, “Strategiya”, “Konsepsiya” tushunchalarining mazmun-mohiyati. “Innovatsion rivojlanish” tushunchasining mazmuni va hozirgi kundagi ahamiyati.
2. Fuqarolik jamiyati qo‘rishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni. Fuqarolik jamiyati qurishning jahon tajribasida ilg‘or yondashuvlar va o‘ziga xos jihatlari.
3. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda jahon tajribasini o‘rganilganligi.

2-mavzu: Taraqqiyotning innovatsion modeli

Reja:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, SH.M.Mirziyoevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi, 2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, jamoatchilik muhokamasi.
2. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatni rivojlantirishning innovatsion uslub va yondashuvlar.
3. Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda innovatsion, ilg‘or usul, hamda vositalardan foydalanish. Jahon tajribasidagi taraqqiyotning ilg‘or innovatsion modellar tahlili.

3-Mavzu: O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari

Reja:

1. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari. Yangi taraqqiyot bosqichida fuqarolik jamiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar.
2. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha uzoq istiqbolga qaratilgan strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirish istiqbollari.

4-mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati

Reja:

1. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar. Yangi taraqqiyot bosqichida mamalakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar.
2. O‘zbekistonni rivojlanishining “Buyuk kelajak dasturi”. Yangi taraqqiyot bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” g‘oyasini ilgari surilishi.
3. Milliy yuksalish sari amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbollari.

5-mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalar - O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiiq etishning asosi

Reja:

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” shiorining mazmun-mohiyati. “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” mazmundagi olib borilayotgan davlat siyosati. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston taraqqiyotining kafolati.
2. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiiq etishning asosiy yo‘nalishlari.
3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va adolatli jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishlari va ahamiyati.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” va “innovatsion rivojlanish” tushunchalarining mazmuni hamda turli xil yondoshuvlar

“Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” tushunchalarining mazmun-mohiyati. “Innovatsion rivojlanish” tushunchasining mazmuni va hozirgi kundagi ahamiyati. Fuqarolik jamiyati qo‘rishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni. Fuqarolik jamiyati qurishning jahon tajribasida ilg‘or yondashuvlar va o‘ziga xos jihatlari. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda jahon tajribasini o‘rganilganligi.

2-mavzu: Taraqqiyotning innovatsion modeli

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, SH.M.Mirziyoevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi, 2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, jamoatchilik muhokamasi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatni rivojlantirishning innovatsion uslub va yondashuvlar. Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda innovatsion, ilg‘or usul, hamda vositalardan foydalanish. Jahon tajribasidagi taraqqiyotning ilg‘or innovatsion modellar tahlili.

3-Mavzu: O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari. YAngi taraqqiyot bosqichida fuqarolik jamiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha uzoq istiqbolga qaratilgan strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirish istiqbollari.

4-mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati

O‘zbekistonni yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar. YAngi taraqqiyot bosqichida mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar. O‘zbekistonni rivojlanishining “Buyuk kelajak dasturi”. YAngi taraqqiyot bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” g‘oyasini ilgari surilishi. Milliy yuksalish sari amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbollari.

5-mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalar - O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbqiq etishning asosi

“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” shiorining mazmun-mohiyati. “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” mazmundagi olib borilayotgan davlat siyosati. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston

taraqqiyotining kafolati. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbiiq etishning asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va adolatli jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishlari va ahamiyati.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori

boʻlgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy taʼlim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish toʻgʻrisida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

17. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy taʼlim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

18. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
19. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
20. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
21. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
22. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
23. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
24. Belogurov A.YU. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
25. Boris Kapustin Grajdanstvo i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”. 2011. — 224 s.
26. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. Anʼanaviy va noanʼanaviy taʼlim. — Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
27. D.Dj.Grin Vozvrasheniye v grajdanskoe obshchestvo: sotsialnoye obespecheniye bez uchastiya gosudarstva. — M.: “Novoye izdatelstvo”. 2008, — 220 s.
28. Djim L. Koen, Endryu Arato Grajdanskoe obshchestvo i politicheskaya teoriya. — M.: “Ves mir”, 2011. — 784 s.
29. Djon Kin Demokratiya i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Progress -

Traditsiya ”, 2001. – 400 s.

30. J.Mavlonov Kommunikativnye osnovy deyatel'nosti institutov grajdanskogo obshchestva: tendensii i innovatsii (Monografiya) - T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 12 b.t.

31. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.

32. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

33. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

34. Li Kan YU Iz tretego mira - v pervyy. Istoriya Singapura. 1965-2000. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. – 420 s.

35. M.Bekmurodov va boshq. Xarakterlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T.: “G‘ofur G‘ulom NMIU”. 2017, - 236 b.

36. Moxammad Xotami Islam, dialog i grajdanskoe obshchestvo. – M.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.

37. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.

38. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

39. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. YU. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO «UrFU im. pervogo Prezidenta Rossii B.N.Elsina», Nijnetagil. texnol. in-t (fil.). – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

40. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

41. R.Xasanov, A.O‘tamurodov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (O‘quv qo‘llanma) – T.: 2016. 14 b.t.

42. Sovremennye obrazovatel'nye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.YU. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

43. Trudnym putyom demokratii: Protsess gosudarstvennogo upravleniya v SSHA (Perevod s ang. A.N.Kulik). – M.: “ROSSPEN”, 2006. – 656 s.

44. U.Bo‘taev Jamiyat barqarorligi: O‘zbekiston tajribasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017. 11.9 b.t.

45. Uil Kimlika Sovremennaya politicheskaya filosofiya. Vvedenie. – M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”, 2013. – 585 s.

46. Usmonov B.SH., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
47. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O‘quv qo‘llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.
48. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.
49. O‘tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati: G‘oyalar evolyusiyasi (SHarq va G‘arb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 96 b.
50. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.
51. Hakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.


IV. Internet saytlar

52. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.
53. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
54. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
55. Открытое образование. <https://openedu.ru/>
56. <https://foxford.ru/wiki/obshchestvoznanie/grazhdanskoe-obshchestvo>
57. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>
58. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyrl
59. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>
60. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>

II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Davra stolining tuzilmasi.

YOzma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. SHundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbat” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
 - barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etadilar;
 - har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi“**Keys-stadi**” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining echimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

III.NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: “RIVOJLANISH”, “STRATEGIYA”, “KONSEPSIYA” VA “INNOVATSION RIVOJLANISH” TUSHUNCHALARINING MAZMUNI HAMDA TURLI XIL YONDOSHUVLAR

REJA:

1. “Rivojlanish”, “strategiya”, “konsepsiya” tushunchalarining mazmun-mohiyati. “Innovatsion rivojlanish” tushunchasining mazmuni va hozirgi kundagi ahamiyati.

2. Fuqarolik jamiyati qo‘rishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni. Fuqarolik jamiyati qurishning jahon tajribasida ilg‘or yondashuvlar va o‘ziga xos jihatlari.

3. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda jahon tajribasini o‘rganilganligi.

Tayanch so‘zlar: rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, strategiya, taktika, tamoyillar, investitsiya, davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish, xavfsizlik, xalqaro totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tashqi siyosat, logistika, tadbirkorlik, davlat idoralari, geosiyosat, turizm, soliq va bojxona siyosati, qurolli kuchlar, milliy xavfsizlik, ta’lim, valyuta bozori, inson huquqlari, byudjet siyosati, ijtimoiy himoya.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o‘zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg‘un, or-no‘muslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo‘lishi kishilik jamiyati tajribalarida o‘zining isbotini topgan. Inchinun, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko‘ruvchi siyosatchilar, tom ma’nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo‘ladigan muommolarni oldindan ilg‘ab, ularning samarali va istiqbolli echimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas’uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir

“arxitektor”larning vujudga kelishi ham davrning taqoza bilan bog‘lanadi. Trumen, CHerchil, YAponiyada Makartur, Singapurda Li Kuan YU, Xindistonda M.Gandi, Xitoyda Mao Sze-Dunlarning uzoqni ko‘ra bilishi millatning farovon kelajagini ta‘minlashga erishish salohiyatlari bilan baholanadi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari ikkinchi jahon urushlari talato‘plaridan so‘ng xalqning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishda misli ko‘rilmagan ommaviy safarbarlik va jasorat na‘munalarini namoyon qilishi bilan barcha xalqlarga ibrat bo‘ldilar.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to‘g‘ri muljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O‘zbekiston ham o‘z tarixining ana shunday mas‘uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident SH Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g‘oyaga aylanmoqda. SHu ma‘noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o‘rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan, o‘z-o‘zidan sovol tug‘iladi? Rivojlanish nima va u qanday ta‘minlanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiy yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta‘minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi? Ta‘limotlarga ko‘ra, rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o‘tishda tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko‘ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg‘unligi e‘tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o‘sib boradi. YA‘ni u rivojlanish ob‘ektning o‘zida mavjud bo‘lgan harakatlarga asoslanadi.¹ Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo‘lgan “innovatsiya”lar, “konsepsiya”lar kabi g‘oyalar orqali ta‘minlaymiz.

Bundan tashqari har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o‘zgarishdan boshlanadi. O‘zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko‘rsatgichlar vujudga keladi. Lekin, har qanday o‘zgarishlar rivojlanishni ta‘minlamaydi. O‘zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. SHunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko‘lamining kengayishida, biron bir sohadagi son

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти 187-бет.

o'sishida va uni amalga ta'minlashning strukturaviy qurilmalarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. SHuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o'tish barcha xalqlarga xos, ammo o'tish yo'llarini tanlash, amalga oshirish va ta'minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. YA'ni bu maqsadlar davlatning strategik yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Xo'sh shunday ekan, strategiya nima? U davlatning qanday jabhalarini qamrab oladi? Strategiya davlat va xalq manfaatlarini uyg'unlashtirishning qanday istiqbollari belgilab beradi?

“Strategiya” tushunchasi grekcha so'zdan olingan bo'lib aslida “jang san'ati” ma'nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo'lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo'llanilmoqda. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy termenologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o'zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo'lib;

- 1.) O'zoqqa muljallangan rejalashtirish san'ati.
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san'ati.
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san'ati.
- 4.) Aholini ma'lum maqsadlar sari safarbar etish san'ati.
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san'ati.
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta'minlash san'ati kabi tushunchalarni qamrab oladi.²

Strategiya – bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvoffaqiyatni ta'minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o'zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no'malumlik parokandaligi orqali sinovdan o'tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo'naltiruvchi g'oyalar majmuasi. Bu resurs cheklanganligini baholash orqali harakatlarning to'g'ri tanlangan yo'nalishi bilan boyitilgan donishmandlik³.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqiyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartarf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni

² Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социально-экономических процессов. Вестник Чувашского университета. 2006 г. №3, С 148

³ Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й. 18 б.

qamrab oladi⁴. SHundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi. Ya’ni, “siyosat”, “doktrina”, “milliy manfaatlar”, “milliy xavfsizlik”, “modernizatsiya”, “innovatsiya”lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta’minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo‘lib hisoblanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob’ektning yo‘l ko‘rsatuvchisiga, mayog‘iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning echimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Boshqacha aytganda: **Strategiya + Taktika= Siyosatga teng**⁵.

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o‘zlashtirib yoxud nusxa olib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy vaziyatlari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma’lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. SHunga ko‘ra, davlat strategiyasining universal formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo‘lgan umumiy tajribalar ham yo‘q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruhlar tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g‘oyalarida yoki davlat apparati tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkur mahsuli sifatida ochiq va ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvoffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Ma’lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning strukturaviy mexanizmlariga muhtoj bo‘ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o‘z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

1. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari.

Davlat strategiyasi o‘z mazmuniga ko‘ra, nazariy va metodologik asoslariga

⁴ Юрина А. О стратегии государственного управление. www.odn2ru.

⁵ Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й.44 б.

ega, rivojlanib kelayotganlar fanlardan. Bugungi kunda davlat strategiyasini amalga oshirishning tamoyillari, strukturaviy funksional asoslari rivojlangan mamlakatlar ta'limotida nazariy jihatdan muqim shakllanganligiga guvohmiz. Mazkur nazariy metodologik asoslar islohotlarning izchil yo'nalishlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Strategik maqsadlar qanday omillar orqali erishiladi? Bu vazifa umumiy va xususiy, birlamchi va ikkinlamchi omillarni o'zaro bog'liq harakat qonuniyatlarini idrok etish va uyg'un faoliyatini ta'minlashga erishishdan boshlanadi. Hukumatlar aksariyat hollarda milliy strategik muvoffaqiyatlarni YAIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida deb qaraydi. YAqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hududlarini kengaytirish, hosildorlikni o'stirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Bugun milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarlarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligi birlamchi omil sifatida qaraladi. G'oyaviy iroda jamiyatni harakatga keltiradi. Harakatsiz harajat nolga teng. Bu nomoddiy resurlarning kengayishi bilan moddiy imkoniyatlarning rivojiga xizmat qiladi. YA'ni, ilm yangi bilimlarni vujudga keltiradi. Barqaror institutlar iqtisodning rivojiga, jamiyat institutlarining takomillashuviga, provard natijada ijtimoiy farovonlikka olib keladi. Strategik xatoga yo'l qo'ygan davlatlar islohotlarni iqtisodiy omillardan boshlaydi.

Davlat strategiyasining metodologik asoslari amaliy faoliyatni rejalashtirishda ma'lum nazariy me'yorlarga amal qilishni taqozo qiladi.

Birinchidan, ijtimoiy voqelik va vaziyatni anglash. Davlat strategik vazifalarni qabul qilgunicha jamiyatda turg'unlik, mavhumlik yoxud inqiroziy holatlar mavjud bo'ladi. Strategik rejalarning qabul qilinishi bilan mazkur vaziyatning murakkab jihatlari aniqlanadi va maqsadga erishish yo'lidagi mavjud resurslar imkoniyati baholanadi. SHunday qilib, sog'lom pragmatik qarashlar ijtimoiy vaziyatni tan olish orqali strategik maqsadlarga olib keladi.

Ikkinchidan, vorisiylik an'anasiga amal qilish. Hukumat amaldorlarining o'zgarishi vorisiylik kafolatlarini ta'minlansa, unda jarayonlar rivojlanmaydi. Davlat organlari amaldorlarining tez-tez o'zgarishi strategik maqsadlarining shakllanmaganligidan dalolat beradi. Zero, davlat strategiyasi shu maqsadlarga muvoffiq etakchilarni tanlashni taqozo etadi. Madomiki, shunday ekan, dastavval kadrlar tizimini shakllantirish strategik maqsadning keyingi amaliy bosqichga o'sib o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Inchinun, boshqaruvni samarali maqsadga xos tashkil etish strategiyaning garovi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, agar davlat e'lon qilgan strategiyasiga sobit bo'lsa, u fuqarolarda hukumatga nisbatan ishonchni uyg'otadi, mutlaqo yangi ijtimoiy

qadriyatlarini taklif qiladi, jamiyatda ijtimoiy xamjihatlikning asoslarini belgilab beradi. YA'ni barcha uchun birdek maqbul bo'lgan g'oya kerak. Bu o'z navbatida fuqaroviy safarbarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Aslida strategiya davlat va jamiyat o'rtasida o'tish davri uchun kelishuv shakli sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, davlat strategiyasi siyosiy kuchlarning faoliyatini strategik vazifalar asnosida birlashtirishni taqozo etadi. Rasmiy va oshkora yakdillik jamiyatda kuchlar muvozanatini yagona maqsad yo'lida uyg'unlashtiradi. Bundan tashqari jamiyatda guruhlar, toifalar, qatlamlar ham mushtarak maqsadlarga intilishlarini ta'minlab beradi. Muvoffaqiyatsizliklarga duch kelgan tajribalardan ma'lumki, ijtimoiy o'zgarishlar yuqorida hokimiyat va mulk taqsimoti doirasidan tashqariga chiqa olmay qolib ketadi.

Beshinchidan, jamiyatda e'lon qilingan strategiya albatta tanqidga olinishi tabiiy. Faqat tanqid konstruktiv, sog'lom va asosli muammolarga qaratilishi lozim. Strategiya mavjud ekan, tanqid taktik masalalarning mohiyatiga qaratiladi va bunday holatni to'xtatish yoki unga tusiqlik qo'yish boshqa illatlarning kelib chiqishiga olib keladi.⁶ G'oyalar xilma-xilligi, konstruktiv muholifat, sog'lom raqobat strategik harakatlar jarayonini muolaja qilib turadi.

Zamonaviy strategiyalarning aksariyati aynan, investitsiyalar orqali inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, ijtimoiy institutlar qoidalarini tashkil etilishiga qaratiladi. Muammo shundan iborat bo'ladiki, davlatning strategik vazifasini jamiyat a'zolari tomonidan idrok eta olmasligi yoxud aksincha jamiyat talablariga da'vatan davlat boshqaruvi tayyor bo'lmasligi natijasida millatning rivojlanish istiqbollari ro'yoga aylanadi. SHuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning ta'mal toshi mustahkamlanadi. Prezident SH.Mirziyoev - "Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. CHunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi"⁷, deb davlat strategiyasining ustvor vazifalarini ochib beradi.

Davlat strategiyasini boshqarish tizimlarining nazariy va metodologik asoslari belgilangan uzoq va yaqin muddatli dasturlarning puxta va mukammal rejalar bilan ta'minlashda izohlanadi. Tanlangan maqsadlarning strategik rejasi, tamoyili, izchil va o'zaro bog'liqlik ijrosi, strukturaviy integratsiyalashuvini talab qiladi. Mazkur jarayonlar starategik boshqaruv rejasi va tamoyillari asosida ta'minlanadi. Strategik vazifalarni rejalashtir qanday me'zonlarga asoslanadi? Ular;

- tashkilot missiyasini aniqlash; tashkilotning mavjudlik mazmunini belgilash, muljallangan, yuklangan mas'uliyatlarni ifodalaydi.

⁶ Сергей Дацюк. Государственная стратегия. <https://gtmarket.ru/laboratory/expertize/>

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

- tashkilot maqsadi va vazifasini shakllantirish; xizmat ko'rsatish turining soni va sifat darajasi rag'batlantirish tizimiga asoslanib faoliyat samaradorligini belgilaydi.

- tashqi muhit ta'sirini baholash va tahlil qilish; ichki xulq-atvorning tashqi munosabatlarga kirish darajasi va natijalari, kommunakativ holat ifodasi. U ob'ektning holati, resurlarning mavjudligi, huquqiy-me'yoriy asoslarning ta'minlanganligi, ilmiy-texnikaviy baza, ijtimoiy-madaniy muhit va infrastrukturaning layoqatligini tahlil etadi.

- ichki strukturani baholash va tahlil qilish; belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida ichki imkoniyat va salohiyatlarni o'rganish, hisobga olish orqali tashkilot missiyani aniq belgilash mumkin bo'ladi. Ular kadrlar salohiyati, boshqaruvni samarali tashkil etish, rejani to'g'ri moliyalashtirish va marketing bilan bog'liq bo'ladi.

- muqobil strategik tavsiyalarni ishlab chiqish va qiyoslash; mazkur yo'nalish strategik rejalashtirishning yuragi hisoblanadi. Zero, unda muqobil tavsiyalardan eng samaralisi tanlanib, maqsadga erishishning maqbul variantlari joriy etiladi.

- strategiyani amalga oshirish; bu yo'nalish eng mas'uliyatli hamda tahlikali jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvoffaqiyati ta'minlanadi. Moboda boshqacha bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, ko'tilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalan olmaslikdir.

- strategiyani baholash va nazorat qilish; bu jarayon strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omil bo'lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanish siklini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'inlardagi bog'lanish imkoniyatlarini ko'zatadi, tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zarurotda strategik rejalarni korrrektirovka qiladi.⁸

Davlat strategik rejaları aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysindirilishi muhim. Ular islohotlarning bir ma'romda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan;

1. Ilmiylik.
2. Maqsadlilik.
3. O'zgaruvchanlik.
4. Birlik.
5. SHarait yaratish.

Ilmiylik. Rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari improvizatsiya qilmog'i, quyilgan vazifalar echimini topishda individual va kreativ

⁸ Шамгун Р.Н. Стратегическое планирование или управление - что выбрать?. www.cfin.ru.

yondashuvlarni tashkil etishi.

Maqsadlilik. Strategiyani shakllantirish va strategiyaviy tahlillar maqsadli bo‘lishi lozim. YA’ni davlatning ustuvor maqsadlarini bajarishga yo‘naltirilishi lozim.

O‘zgaruvchanlik. Mazkur tamoyil oldin qabul qilingan qarorni o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib xohlagan damda qayta ko‘rib chiqishi demakdir.

Birlik. Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi. Turli darajada qarorlarning mustahkam bog‘liqligi va xamjihatlilik muvoffaqiyatning shartli kafolatidir. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bug‘inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo‘lim rejalarining kelishuvi bilan ta‘minlanadi.

Sharoit yaratish. Strategiyani amalga oshirish imkoniyatini to‘g‘diradi. Strategik rejaning mavjudligi hali muvoffaqiyatli amalga oshishini kafolatlamaydi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Ular mustahkam tashkiliy struktura, rag‘batlantirish tizimi va boshqaruv tizim samaradorligini oshirishga qaratiladi.⁹

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past so‘ratlariga, shaxsiy mas‘uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajdasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan ta‘minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi strategik yo‘nalishlarni belgilashning mavhum va noma‘lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga xizmat qiladi. Bu masalalar quyidagi tamoyillar bilan aniqlashtiriladi:

- **Maqsad** – nega u yoki bu harakatlar birlamchi bo‘lib hisoblanadi. YA’ni nima uchun dolzarb va real vaziyatda, turli ijtimoiy ehtiyojlar talabida, qo‘rquv va ikkilanish sharoitida muhim vazifalarni ajratib olish kerak?

- **Tashqi sharoit** - qaysi nuqtada maqsadga erishish ko‘zda tutilmoqda. Zarur resurslar mavjudligini aniqlash va amalga oshishi lozim bo‘lgan hozirgi va kelgusidagi sharoitlar taqoza qiladimi? Hukumat ana shu ikki nisbat o‘rtasidagi omillarni qanday me‘zonlar bilan tanlashi lozim?

- **Yo‘nalish** – nimaga erishishni hoxlaymiz, belgilangan, istalgan maqsad va natijalar qanday? Bu o‘z navbatida keyingi harakatni belgilaydi:

- **Harakat** – hukumat va idoralar belgilangan maqsadga erishishning qanday rejasiga ega: strategiyada ifodasini topgan tamoyillar qanday qonunlar va dasturlarda kafolatlanmoqda, jamiyatni qanday omillar etaklaydi, rag‘batlantiruvchi kuch nimada? Mazkur harakatlar ko‘tilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lganligi uchun strategiya ta‘limga bog‘liq bo‘ladi:

- **Ta‘lim** – jamiyat tasavvurlarini shakllantirish tizimi sifatida tanlangan

⁹ Государственное стратегическое управление. Общ.ред. проф. Ю Кузнецова. Питер, 2014. С134

yoʻnalishni va shuningdek, maqsadni qayta koʻrib chiqish, imkoniyatlarni belgilash asosida qanchalik amaliy natijalarga erishilayotganligi hamda qaysi sohalarda imkoniyatlar boy berilayotganligini aniqlash, taqqoslash, qiyoslash indekatorlarini (ilmiy uslublarni) joriy etish talab etiladi.¹⁰

Davlatning strategik boshqaruvi tizimi belgilangan maqsaddan kelib chiqilgan yangi yoʻnalishlarni tanlashdan, shunga muvoffiq hokimiyat organlarining qayta tashkillashtirilishidan hamda umum ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik maqsad yoʻlida jamiyat kuchlarini safarbar etish bilan belgilanadi. Davlat strategik boshqaruvi tizimi indekatorlari mazmuni quyidagi savollarga javob topishga qaratiladi.

1. Qachon, qaerda va nega?

2. Ijtimoiy va madaniy ahamiyatga molik maqsadlarni aniqlash (**nimaga?**).

3. Insoniy, tabiiy, texnik-texnologik, moliyaviy, ishlab chiqarish resurslarini aniqlash (**nima uchun, qanday qilib, nima bilan?**).

4. Aholi bunyodkorligi va tashabbuskorligini oshirishda tegishli moddiy taʼminot asoslarini yaratish (**qancha va qanday sifatda?**).

5. Malakali mutaxassislarni tayyorlash (**qancha, qanday harajat va qiymatda?**).

6. Ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlarini oʻz vaqtida isloh etish (**qanday qilib va qanday vositalar bilan?**)¹¹

Davlat strategiyasining funksional vazifalari turli boʻlishga qaramasdan, ularning mazmun-mohiyati uchta asosiy funksiyaning elementlari hisoblanadi. Ularsiz boshqaruv tizimlari, ayniqsa, strategik rahbarlik va boshqaruv tizimlari toʻliq samarali ishlay olmaydi. Bular strategik rejalashtirish, strategik ragʻbatlantirish hamda strategik monitoring va nazorat.

Birinchi element aniq istiqbolli siyosatni shakllantirish jarayonini qamrab oladi. Uning dastlabki ustuni sifatida mazkur siyosatni omma eʼtiboriga havola etish, ongiga singidirish, tadbiq etish vazifalarini belgilashga, imkoniyatlarni hisobga olishga qaratiladi. YAʼni rejalashtirish.

Ikkinchi element maqsadga erishish yoʻlida moddiy va maʼnaviy resurslarni toʻgʻri taqsimlash, ketma-ket bogʻliq vazifalarni aniqlash orqali erishilinadi. Bunda asosiy eʼtibor rejalarni amalga oshirish faoliyatini toʻgʻri ragʻbatlantirish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Uchinchi element faoliyat natijalarining monitoringini tashkil qilish, samarali omillarni takomillashtirib borish, nazoratni koʻchaytirish lozim, deb qaraydi. Mazkur unsurlar yaxlit jarayon sifatida biri ikkinchisini mustahkamlashga xizmat qiladi.¹² Agar birinchi vazifalar taʼminlanmasa, qolgan bosqichlar amalga

¹⁰ Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. С 14

¹¹ Юрина А. О стратегии государственного управления. www.odn2.ru.

¹² Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. С 232

o'shmaydi. Yoki rasmiyatchilik holati vujudga keladi. SHu sababdan ushbu qonuniyatlar bir-biri bilan ziddiyatlarga ham kirishishi mumkin. Bunday vaziyatlar strategiya jamiyat sohalarini to'liq qamrab olishga erishmaganligidan dalolat beradi. Masalan, fan-ta'limni rivojlantirmay turib yuqori texnologiyaga erishib bo'lmaydi. YOki tadbirkorlik va xususiy mulk vakolatlarini kafolatlamasdan turib, iqtisodiyot, investitsiya sohalarini rivojlantirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda strategiya, bu – fundamental fan hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari va ilmiy kategoriyalari har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtiriladi hamda muvofiqlashtiriladi. Ammo, har qanday strategiya – strategiyalash ob'ektidan qat'i nazar, umumiy tabiatga ega va, demak, umumiy nazariy asoslarga ega bo'lishi lozim. SHu sababli strategiyaning yaxlit tizimi milliy, mintaqaviy, sohaviy va korporativ strategiyalarni integratsiyalashuvi jarayonlaridan hosil bo'lib boradi.¹³

3.O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichi.

Har bir davr o'ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir davrning o'z ta'limoti va yondashuv tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo'l-yo'riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lgani kabi, favqulotda ijtimoiy o'zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiy ta'sirni jamiyatning o'zi inkor qiladi. Tadrijiy ta'limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg'un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo'naltirilishi, infratuzulmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, mulkdorlar qatlaminig o'sib borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta'minlanadi. SHu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallasuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda namoyon bo'lmoqda. Inchinun, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezidenti SHavkat Mirziyoev mamlakat taraqqiyotining kompleks

¹³ Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; "TASVIR". 2018й.42 б.

dasturini ilgari surdi. Bu hujjat «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»¹⁴ deb nomlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yillik tantanalariga bag‘ishlangan ma‘ruzalarida muhtaram Prezident –“ Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda¹⁵ deb, ulkan o‘zgarishlarga dahildor yangi g‘oyalarni ilgari so‘radi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo‘lgan munosabatini o‘zgarganligida namoyon bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ham mavjud o‘tkir muammolarga e‘tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo‘llari ko‘rsatib berildi. 2017 yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e‘lon qilinishi, 2018 yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash” yillarida amalga oshirilgan islohotlar asosida «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan insonparvar g‘oya izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilandi. Bu borada davlat organlari hamda fuqarolarning o‘zaro munosabatiga bo‘lgan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etildi. Mazkur erishilgan natijalar zaminida 2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” sifatida davlatning strategik yo‘nalishlari yanada samarali, mustahkam va izchil qarorlar bilan boyitildi.

Ushbu vazifalar avvalo demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining ma‘muriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini oshirishga yo‘naltirilgan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratiladi. Bu yo‘nalishlar qo‘yidagi strategik tamoyillarda o‘z ifodasini topdi:

O‘ZBEKISTON HARAKATLAR STRATEGIYASI

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Фармони. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”// Веб-сайт Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси – www.lex.uz.

¹⁵ Халқ сўзи. 2018 йил 8 декабрь.

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

4.5. YOshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokativ vazifasini ham bajarishi mumkin. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob‘ektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarni yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Harakatlar strategiyasining etaklovchi lokativ kuch - bu davlat va uning organlari. Undan chiqdi, islohotlarning garovi va kafolati layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog‘liq hodisa. SHunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga etkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. SHu nuqtai-nazardan Prezident SH.Mirziyoev “Murojaat”ida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma‘muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida

zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalari belgilanadi.¹⁶

Boshqaruvda adolatli davlat boshqaruvi tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari – ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi - yomoni, foyda – ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan kura bunyodkorlik qilish avfzalligi ustuvorlik kasb qiladi. Shu ma'noda Prezident SH.Mirziyoev sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning mushtarakligini ta'minlashga qaratiladi.¹⁷

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi shubhasiz iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tadbiiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. YA'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni tadbiiq etishni talab qiladi. Natijada mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqaro

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan (tarbiyalangan) bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladiki, tabiiy ravishda aholining real daromati va shunga muvoffiq ijtimoiy himoyasi, turmush darajasi ham oshib boradi.

Harakatlar strategiyasining samarali natijasi bevosita mamlakatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bog'rikenglikni ta'minlash hamda o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat samaradorligi bilan bog'liq hodisa. Bunday deyishimizga sabab, tashqi siyosat ichki siyosatga, ichki siyosat tashqi siyosatning natijalariga bog'liq bo'ladi. Inchinun, millat ulug' maqsadlari yo'lida sobitqadam va mushtarak bo'lsalar, faoliyat amallari yuksak bo'lsa, bunday xalq jahon xamjamiyatning munosib a'zosiga aylanib borishi bilan o'z qudratini ham mustahkamlab boradi.

Dasturlarda belgilangan harakatlar strategiyasi barcha yo'nalishlari tahlili bir-biriga bog'liq uzviy qonuniyatlar bilan bog'langanligini ko'rsatib turibdi. Ular davlat boshqaruvi tizimlarining murakkablashuvi asnosida fuqarolarning ijtimoiy hayotga ishtirokini soddalashtirilishida, talab va ehtiyojlarga mos ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvida, son ko'rsatgichlarning o'sishida, jamiyatning strukturaviy o'zgarishlarida, ijtimoiy sohalarining rivojlanishida namoyon bo'lmoqda. Albatta, startegiyaning muvoffaqiyatli joriy etilishi faqatgina undagi iqtisodiy va texnologik omillar bilan belgilanmaydi, bunda etakchilar va qaror qabul qiluvchi rahbarlarning obro'si, insoniy fazilatlarini, strategiyaga doir shijoati ham muhim rol o'ynaydi. Eng katta va hal etuvchi kuch – bu xalqning irodasi bo'lib qoladi.

Nazorat savollari:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni qabul qilinishining bosh maqsadi va ahamiyati.
2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat boshqaruv va jamiyat tizimi.
3. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi hokimiyatining ustuvor tamoyillari.
4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi hamda jamoatchilik nazoratining ahamiyati.
5. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoa tashkilotlari yoki siyosiy partiyalarning o‘rni va ahamiyati.
6. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining ixtisoslashuvi va uni yanada takomillashtirish zaruriyati.
7. Tadbirkorlik sub'ektlari huquq va manfaatlarini himoya qilishda iqtisodiy sudlar tashkil etilishining ahamiyati.

8. “Xabeas korpus” institutining mazmun-mohiyati.
9. Fuqarolar murojaatlarini hal etishda virtual qabulxonalarining o‘rni va ahamiyati.
10. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish samaradorligi.
11. Mamlakatimizda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari va ularning ahamiyati.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati.
13. Jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezoni.
14. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashda O‘zbekistonning o‘rni.
15. Ta’lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash borasidagi islohotlar hamda ularning ahamiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

2-mavzu: TARAQQIYOTNING INNOVATSION MODEL I

REJA:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, SH.M.Mirziyoevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, 2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, jamoatchilik muhokamasi.

2. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatni rivojlantirishning innovatsion uslub va yondashuvlar.

3. Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda innovatsion, ilg‘or usul, hamda vositalardan foydalanish. Jahon tajribasidagi taraqqiyotning ilg‘or innovatsion modellar tahlili.

Tayanch so‘zlar: Taraqqiyot, innovatsiya, texnologiya, strategiya, taktika, tamoyillar, investitsiya, iqtisodiyotni liberallashtirish, logistika, tadbirkorlik, davlat idoralari, geosiyosat, turizm, soliq va bojxona siyosati, ta‘lim, valyuta bozori, inson huquqlari, byudjet siyosati, ijtimoiy himoya.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta‘minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

SHu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko‘rsatdi.

Xususan, bu borada ko‘plab ko‘rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagani sababli mamlakatimiz so‘nggi yillarda nufuzli va obro‘li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayapti.

Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan o‘zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayapti.

Jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini izchil ta‘minlash maqsadida belgilangan:

a) mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish - Strategiyaning bosh maqsadidir;

b) bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tiziminining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim shartidir.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi. Jumladan:

aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi past;

oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlarini, talabalarni qabul qilish kvotasi miqdorini belgilashda, moliyaviy mablag'larni taqsimlashda mustaqil emas;

ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriyalar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmagan;

ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish darajasi past;

innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislar mavjud emas;
ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari etarli emas;

ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, byudjetdan tashqari va xususiy jamg‘armalar mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emas, qarzni moliyalashtirishning ichki manbalari etarli darajada rivojlanmagan;

intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish lozim darajada emas, ushbu sohada, ayniqsa davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar mavjud emas;

qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalari, ikkilamchi resurslarni energetik utilizatsiya qilish sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi past;

mamlakatda, ayniqsa davlat kompaniyalarida korporativ munosabatlar va korporativ boshqaruv prinsiplari rivojlanmagan, bunda xorijdagi eng namunali amaliyot inobatga olinmayapti;

mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining ulushi kam.

Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizning jadal innovatsion rivojlanishiga, investitsiyalarni jalb etishga, iqtisodiyotning o‘sishiga hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

SHu munosabat bilan quyidagi maqsadlar, vazifalar va asosiy yo‘nalishlarni nazarda tutadigan 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda:

2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining **maqsad va vazifalari** quyidagilardan iborat:

1. Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish Strategiyaning bosh maqsadidir.
2. Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

barcha darajada ta‘lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta‘minlash;

ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar

natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining **asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

1. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish;
2. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;
3. Infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;
4. Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish;
5. Raqobatni rivojlantirish va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

Ma'lumki, 2018 yil 21 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Strategiyaning bosh maqsadi **inson kapitalini** rivojlantirish, **2030 yilgacha** Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning **50 ta** ilg'or mamlakati tarkibiga kirish etib belgilandi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan **39 ta** Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan iqtisodiyotni real sektorini rivojlantirish bo'yicha "Yul xarita"lari ishlab chiqilib hamkorlikda samarali ishlar yo'lga qo'yildi. **20 ga** yaqin tashkilotda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari tashkil etilib, jami **45,46 mlrd. so'm** mablag' yo'naltirilgan;

Venchurga asoslangan moliyalashtirishni joriy etish va innovatsion loyihalarga tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy mablag'larini keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 noyabrda **PF-5583-son Farmoni qabul qilindi** va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning tubdan yangi tizimi joriy etildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi 48-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida 2019 - 2021 yillarda "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi tasdiqlandi. Hozirda ushbu konsepsiya Navoiy, Nurafshon va Mo'ynoq shaharlariga joriy qilinmoqda;

2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida startap-ekotizimni rivojlantirish bo‘yicha ilk bor konsepsiya ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya Havfsizlik Kengashiga kiritildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berishga tayyorlandi;

Mamlakatimizning **iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy barqarorlik va milliy havfsizligini ta‘minlash, shuningdek milliy mudofaa qudratini yanada oshirish** maqsadida Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorligini ta‘minlashda sun‘iy intellekt loyihasi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berishga tayyorlash uchun Prezident Administratsiyasiga kiritildi;

Urug‘chilik tizimining tubdan yangi modeli joriy etildi, uning qonuniy asosini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Urug‘chilik to‘g‘risidagi” Qonuni qabul qilindi, yangi tashkil etilayotgan to‘qimachilik klasterlariga urug‘chilik bilan shug‘ullanishning huquqiy asosi ishlab chiqildi, urug‘chilikka ixtisoslashgan klasterlarni tashkil etish orqali qishloq xo‘jaligiga xususiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish tizimi tashkil etildi;

Respublikamizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni tartibga solishning qonuniy asosini ta‘minlash, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni huquqiy kafolatlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarning sifati va samaradorligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan sohasi to‘g‘risida” hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Davlat xizmatlari ko‘rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish bo‘yicha:

Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda istiqbolli rahbar kadrlarning ma‘lumotlar bazasini shakllantirishga hamda davlat organlari xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 maydagi PQ-3755-son qaroriga muvofiq 3 yilda bir marotaba “Taraqqiyot” respublika tanlovi o‘tkazildi;

Tanlov natijalari bo‘yicha final bosqichiga chiqqan 300 ta ishtirokchilar bilan yozma imtihon va suhbatlar o‘tkazildi va 50 nafar g‘oliblar va 100 nafar tanlov finalchilari aniqlandi. **Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va rahbarlik lavozimlarga qo‘yish** bo‘yicha takliflar Prezident Administratsiyasiga taqdim etildi;

Davlat boshqaruvi akademiyasi bazasida tashkilot rahbarlarining innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosarlarining malakalarini oshirish

maqsadida “innovatsion menejment” kurslari tashkil etildi. Mazkur mashg‘ulotlarga Buyuk Britaniyaning **5 nafar** malakali ekspertlari jalb qilindi;

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi Doimiy vakilligi bilan hamkorlikda **“innovatsiyalar va boshqaruv echimlar” Laboratoriyasi** tashkil etildi. Laboratoriya faoliyati doirasida BMTning Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda muammoli muhokamalarni tizimli ravishda o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, laboratoriya faoliyati doirasida “Mehnat bozorini tartibga solish” buyicha **“Job Cafe” mobil ilovasining demo varianti** yaratildi va taqdimoti o‘tkazildi;

Rahbar kadrlarning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida masofaviy “elektron portal”ni ishga tushirish choralari ko‘rilmog‘da. Mazkur portal rahbar kadrlarning ishdan ajralmagan holda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, malakasini oshirgan boshqaruv kadrlari to‘g‘risidagi yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, boshqaruv kadrlarining kompetensiyalarini doimiy monitoring qilish kabi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi;

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o‘sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta‘minlashga qodir bo‘lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha:

Hududlarning ilmiy salohiyatini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha umumiy qiymati 16,5 mlrd. so‘mlik 20 ta mavzu bo‘yicha tanlov e‘lon qilindi. Tanlovga kelib tushgan 226 ta loyihalarni belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi va Ilmiy-texnik kengashlarda ko‘rib chiqilishi ta‘minlandi. Natijada, 9 ta loyiha 7,2 mlrd so‘mga moliyalashtirishga tavsiya etildi;

Surxondaryo viloyatida 10 ta aqlli bekat qurildi (**1,264 mlrd so‘m**). Hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq shahrida 5 ta **“Aqlli bekat”** lar qurilishi tashkil etilmog‘da;

Aholini oflayn tarzda axborot resurs bazasidan foydalanish imkonini yaratish maqsadida respublikamizning chekka hududlarida joylashgan maktablar, OTMLar va jamoat gavjum bo‘lgan joylarga 100 dona “Q-Box” moslamalari o‘rnatildi;

Ishsiz yurgan yoshlarni ish bilan ta‘minlash maqsadida Hindiston va Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatida “Biznes-akselerator” o‘quv-amaliy markazi faoliyati tashkil etilmog‘da;

Maktablarda dars vaqtlarini elektron qo‘ng‘iroq orqali boshqarish maqsadida Elektron qo‘ng‘iroq qurilmasi ishlab chiqildi. Jizzax viloyatidagi maktablarga sinov tariqasida o‘rnatildi;

O‘zbekistonda ilk bor Toshkent viloyatining Ohangaron shahrida Bolalar texnoparki tashkil etildi.

Sirdaryo viloyati Bayovut tumanida 120 gektar maydonda Bioorganik kimyo institutining DAG-1 preparati bilan zavodda ishlovlangan chigitlarni ekilishi va sinovlarni o'tkazish bo'yicha tajriba-sinov maqsadida shartnomalar tuzildi;

Navoiy viloyatida Qizilqum fosforitlari asosida oddiy superfosfat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi joriy etildi. Loyiha doirasi jami 9,17 mlrd. so'm qiymatga teng 10,7 tonna granulali oddiy superfosfat ishlab chiqarildi;

Qoraqalpog'iston tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutining "Agrorudalar asosida o'g'itlarning yangi turlari" ishlanmasi bo'yicha "Bo'rlitog' Kimyo" MCHJ tomonidan "ASR YAXSHINIYAT" MCHJ bilan 1 mlrd so'mlik, "OYXON SADULLAYEVA" fermer xo'jaligi bilan esa 20 mln. so'mlik shartnoma imzolandi;

Sirdaryo viloyatida xorijiy investorni jalb etgan holda "Peng-sheng klasteri" va "Bek-klaster" negizida urug'chilikka ixtisoslashgan klasterlari tashkil etildi, Namangan viloyatida "Momiq sochiqlar urug'chilik klasteri" faoliyatini yo'lga qo'yish asosida qishloq xo'jaligiga xususiy investitsiyalar jalb etildi;

Innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, hududlarda va qishloq xo'jaligi sohasiga innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha:

-Respublika hududlarida jami 120 dan ortiq "O'simliklar klinikasi" xizmati joriy etildi;

-Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi uzumchilikka ixtisoslashgan "Tasmachi", "Oltinobod" va "Uchqora" MFY xududlarida Toshkent davlat agrar universiti bilan hamkorlikda innovatsion usulda 3 ta mevalarni energiya tejamkor quritish loyihasi amaliyotga joriy etildi.

Vazirlik tashabbusi bilan yiliga kamida 1000 dona virusdan holi ko'chatlarni etkazib berish tizimli ravishda tokzorlarni yangilab borish choralari ko'rish maqsadida Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan Xatirchi tumanida etishtirib kelinayotgan "Oq dum" va "Qizil dum" uzum navlaridan barg namunalari olib kelindi. Genomika va bioinformatika markazida molekulyar tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ushbu namunalardan genom DNK ajratilib, mikrosetellit markerlar yordamida genotipik jihatdan o'rganildi. Laboratoriya tahlillari natijalariga ko'ra, "Oq dum" navi tozaligi 75% ni, "Qizil dum" uzum navi tozaligi esa 80 % ni tashkil qilgani aniqlandi va "In vitro" usulida tayyorlangan uzum ko'chatlari Xatirchi tumaniga fermer xo'jaliklariga ekildi;

Farg'ona viloyatida "Sindbod" xususiy korxonasi "Qo'qon-2" paxta tozalash korxonasi negizida qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan "Qo'qon urug'chilik klasteri" MCHJ tashkil etildi;

Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi "Semrug" ko'p tarmoqli urug'chilik korxonasi (*loyiha umumiy qiymati 4,5 mlrd so'm*) tashkil etilib, zamonaviy asbob-

uskunalar sotib olish uchun Korxonaga Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2,38 mlrd. so‘m grand mablag‘ moliyalashtirilib berildi;

Sirdaryo viloyatida Sabzavot va poliz ekinlari ilmiy urug‘chilik stansiyasi tashkil etilib, stansiya binolarini qurish va zarur uskuna bilan jihozlash uchun Innovatsion rivojlanish va novatorlik jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish amalga oshirildi.

Hududlarning innovatsion salohiyatini yanada oshirish, amalga oshiriladigan innovatsion loyihalarga xususiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida davlat-xususiy sherikchilik asosida hududiy innovatsion markazlarni tashkil etishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Hozirda Namangan, Surxondaryo, Xorazm va Navoiy viloyatlarida xususiy kapital asosida innovatsion markazlar tashkil etilmoqda;

Hududlarda tabiiy o‘g‘itlar bilan ta‘minlash tizimini rivojlantirish maqsadida mahalliy tadbirkor “Nacle” ni jalb etgan holda Koreya Respublikasining ilg‘or tajribasini joriy qilindi;

Andijon viloyatida innovatsion faoliyatni tizimli qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida Andijon tajriba-sinov maydonchasini tashkil etish loyihasi ma‘qullandi va zarur er maydonlari ajratildi, ushbu loyihani amalga oshirish uchun Jahon bankining mablag‘lari hisobiga zarur asbob-uskuna bilan butlash ishlari boshlandi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-son qarori bilan hududlarda davlat xususiy sherikchiligi asosida innovatsiya markazlarini tashkil qilish tizimi ishlab chiqilib, Termiz, Namangan, Farg‘ona, Urganch va Nukus shaharlarida innovatsiya markazlari tashkil qilinmoqda.

Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta‘minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ixtirochilari, investorlar va O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3855 son qarori bilan belgilangan usullar orqali ishlanmalarni tijoratlashtirish ta‘minlangan.

2019 yil 1 iyul holatiga jami **62 ta** innovatsion ishlanma tijoratlashtirilmoqda. Olib borilgan ishlar natijasida umumiy qiymati **11,9 mlrd. so‘m** miqdorida mahsulot ishlab chiqarilgan va **4,9 mlrd. so‘m**lik mahsulot sotilgan. **30 ta** ishlanma bo‘yicha **19 ta** innovatsion startap kompaniyalar tashkil qilingan, unda **15 ta** ilmiy muassasa, **6 ta** tijorat banki va **6 ta** investor qatnashdi. Intellektual mulk ob‘ektlariga bo‘lgan huquqlarni investorlarga o‘tkazish bo‘yicha 11 ta litsenziya kelishuvlari tuzildi va innovatsion ishlanmalar mualliflariga yillik **3-15%** miqdorida daromad olishi ta‘minlandi.

SHuningdek, Umumiy va noorganik kimyo instituti ishtirokida “**ponton**” ishlab chiqaruvchi “**Kimyoviy texnologiya**” MCHJ tashkil etildi. Hozirda, Muborak gazni qayta ishlash zavodiga umumiy miqdori **182,5 mln so‘mlik ponton** etkazib berildi. Mexanika va inshootlar seysmik mustaxkamligi instituti tomonidan ishlab chiqilgan *Xo‘l tipdagi inersion chang tutkichlar* “Navoiy TMK” DKning Qizilqum fosforit kompleksiga jami **67,5 mln. so‘m** miqdorida etkazib berildi. Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining “**Bioazot-N**” ishlanmasi umumiy miqdori **77,0 mln. so‘m**ga iste‘molchilarga etkazib berildi. Seysmologiya institutining “O‘ta mas‘ul ob‘ektlarda seysmik monitoringni olib borish metodikasi” ishlanmasi bo‘yicha **357,6 mln. so‘m** mablag‘ o‘zlashtirilgan. Institutning “Qurilish maydonlarda seysmik jadallikni baholash metodikasi” ishlanmasi qurilish sohasiga joriy qilinib **476 mln. so‘m** o‘zlashtirildi. SHu bilan birga **venchurli moliyalashtirish** tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 mayda **414-son qarori qabul qilindi**. Bugungi kunda **2 ta** Investitsiya kompaniyasi (Venchur Kapital Invest va O‘zbek-Amirlik investitsiya kompaniyasi) tashkil etildi. Xorij tajribasi asosida faol tarzda sohani rivojlantirish uchun vazirlikka maslahatchi sifatida Koreya Respublikasidan yuqori malakali ekspert (Kim Jong Xyon) **jalb qilindi**. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan umumiy qiymati **113,42 mlrd.so‘m** miqdorida investitsiya loyihalari o‘zlashtirishga erishildi. SHundan **77,0 mlrd.so‘m** ichki investitsiyalar, **1,8 mlrd.so‘m** to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va **34,62 mlrd.so‘m** texnik ko‘mak hisobiga amalga oshirilgan. Ushbu investitsiyalarning salmoqli qismi sog‘liqni saqlashga **42%** (47,1 mlrd.so‘m), ta‘lim sohasiga **30%** (33,7 mlrd.so‘m) va sanoatga **26%** (29,2 mlrd.so‘m) yo‘naltirilgan. Jumladan: Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi “Semrug” ko‘p tarmoqli urug‘chilik korxonasi tashkil etish va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun **1,6 mlrd.so‘m** mablag‘ o‘zlashtirildi;

“GREEN BIO TECH” MCHJ qo‘shma korxonasi faoliyatini tashkil etish va yangi “FOSSTIM”, “RIZOKOM” va “Serhosil” turini ishlab chiqish uchun **1,8 mlrd. so‘mni** o‘zlashtirildi;

“DMC klinikasi”ning Toshkent shahrida faoliyatini tashkil etish uchun **5,0 mln AQSH dollari** va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumanidagi filialini ham tashkil etish uchun **200,0 ming AQSH dollari** investitsiya qilindi;

“Medical Manufacture Center” MCHJ qo‘shma korxonasi negizida innovatsion tibbiy buyumlar va implantlar ishlab chiqarilishini tashkil etish uchun **5,5 mlrd. so‘mlik** investitsion mablag‘lar kiritildi;

“YAshnobod” innovatsion texnoparkining **23 ta** rezidentlari tomonidan **3,1 mln. AQSH dollari** miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, kimyo texnologiyalari, mashinasozlik qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun yo‘naltirildi;

Ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari tomonidan umumiy xajmi **1,25 mln. AQSH dollari** hamda **1,9 mln. evrodan** iborat **170 ta** xalqaro ilmiy grantlarning bajarilishi ta‘minlandi. SHu bilan birgalikda umumiy qiymati **54,4 mln. AQSH dollari** miqdoridagi **7 ta** investitsiya loyihalari ishlab chiqildi. Xususan, umumiy qiymati **30,0 mln.doll** bo‘lgan **3 ta** loyiha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga va ichki investitsiyalar hisobiga qiymati **14,4 mln.doll. 4 ta** loyiha amalga oshirilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha:

O‘zbekiston YOshlar ittifoqi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “International Robotics Challenge” xalqaro robototexnika musobaqasida 9-16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar va 16-23 yoshdagilar o‘rtasida robototexnika musobaqasi o‘tkazildi. Tadbirda **64 ta** jamoada **160** dan ortiq ishtirokchi qatnashdi, shundan **24 ta** jamoa xorijiy mamlakatlardan. G‘olib jamoa a‘zolariga qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armasi hamda O‘zbekiston YOshlar ittifoqi bilan hamkorlikda iqtidorli yosh robototexniklar o‘rtasida “**RoboCUP**” televizion musobaqasi o‘tkazildi. **2 nafar g‘oliblar** Xitoyda joriy yilning 27 iyulida o‘tkaziladigan Nobel mukofoti sovrindorlari ishtirokida tashkil etiladigan “Asian Science Camp” tadbirida qatnashish huquqiga ega bo‘ldi. “**RoboFootball**” yo‘nalishi bo‘yicha **2 nafar g‘oliblarga** imtiyoz asosida Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga o‘qishga kirish huquqi berildi; 2019 yil 6 may kuni Toshkent shahrida “**Robototexnika hamma uchun**” mavzusida imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tadbir o‘tqazilgan. Unda maxsus internat maktablarining **100 nafar**ga yaqin o‘quvchilari ishtirok etgan. Tadbir ikki qismda “YOshlarga robototexnika tushunchasi va robotlar bilan ishlash, ularni yasashga oid tushunchalar” hamda “Kimyo laboratoriyasi” shousi namoyish qilingan. Tadbir yakunida tanlov g‘oliblariga qimmatli sovg‘alar berilgan;

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi va BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorligida “**Startup Tashabbuslar**” tanlovi tashkil etildi. Respublika bo‘yicha **308 ta** ariza qabul qilindi. Tanlov natijalariga ko‘ra **33 ta** startup loyihalar saralab olinib, **5 nafar** g‘olibga Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini

qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan umumiy miqdori **200 mln.** so‘mga teng bo‘lgan pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 apreldagi 276-son qarori bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markaz tashkil etildi. Markazda 6 ta yo‘nalish robototexnika va mexatronika, uchuvchisiz parvoz etuvchi qurilmalar, 3D prototiplashtirish, aerokosmik, sanoat sohasidagi internet buyumlari, 5G yangi avlod tarmoqlari laboratoriyalari faoliyat yuritadi. Olimlar, tadbirkorlar va tashabbuskor yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida vazirlik huzurida **YOshlar akademiyasi** tashkil etilmoqda. Mazkur akademiya o‘z ichiga g‘oyalar generatorlari, startaplar, biznes vakillari va bo‘lajak akademiklar platformalarini o‘z ichiga oladi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi 786-son qarori bilan Innovatsion g‘oyalar etakchisi ko‘krak nishonini ta‘sis etildi. Tuman (shahar) hokimliklarida va Oliy ta‘lim muassasalarida tuzilgan komissiyalarga hozirgi kunda jami **468 nafar** nomzodlar ko‘krak nishoniga hujjatlar topshirgan. Hozirgi kunda **14 ta** hududdan **3 tadan** nomzodlar Innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etilmoqda.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan, respublikamizda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, innovatsiya sohasiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, olimlarimizning ilmiy natijalarini tijoratlashtirish, yoshlarning ilm-fan va ixtirochilikka bo‘lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida 2018 yilning 23-26 oktyabr kunlari Toshkent shahridagi “O‘zekspomarkaz” majmuasida chet el ilmiy-innovatsion markazlari, investitsion jamg‘armalari, texnologik agentliklari, texnoparklari va biznes inkubatorlarining faol ishtirokida “INNOWEEK” Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi o‘tkazildi. “INNOWEEK” haftaligi Xalqaro innovatsiyalar yarmarkasi, Xalqaro innovatsion-investitsion forum hamda Xalqaro robototexnika musobaqasi - “International Robotics Challenge” kabi muhim tadbirlar asosida tashkil etildi. Mazkur haftalikda **20 dan** ortiq xorijiy davlatlardan olimlar, mutaxassislar, ekspertlar, investorlar, tadbirkorlar va diplomatlar ishtirok etdi. “INNOWEEK” davomida xorijiy va mahalliy hamkorlar bilan innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlash va joriy etish uchun investitsiyalar kiritish bo‘yicha dastlabki kelishuvlar va savdo shartnomalari imzolandi.

Nazorat savollari:

1. Taraqqiyotning innovatsion modeli tushunchasi va uning nazariy asoslari.
2. O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining maqsadi.

3. O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichida innovatsiyalarning o‘rni.
4. 2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida o‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni (PF-5544) va uning mazmun mohiyati
5. O‘zbekiston Respublikasida innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislar ahvoli
6. Innovatsion rivojlanish vazirligi va ularning faoliyati haqida ma’lumot.
7. Texnologiyalar transferi deganda nima tushiniladi.
8. O‘zbekistonni innovatsion rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari qanday?
9. 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha komissiyaning vazifalari.
10. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun-mohiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

3-MAVZU: O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY, SIYOSIY RIVOJLANISHINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Reja:

1. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari. Yangi taraqqiyot bosqichida fuqarolik jamiyatini yanada

mustahkamlash va rivojlantirish borasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar.

2. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadi va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha uzoq istiqbolga qaratilgan strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlari.

3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yuksaltirish istiqbollari.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, taraqqiyotning beqiyos katta imkoniyatlari ochildi. Milliy mustaqillik tufayli xalqimiz siyosiy mutelik, qaramlik asoratidan qutildi. Davlat suvereniteti natijasida jamiyatimizni isloh etish va zamonaviy siyosiy taraqqiyot jarayonlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin va siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich barpo qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. O‘zbekiston istiqbol tufayli o‘z taraqqiyotining tamomila yangi bo‘lgan tarixiy davriga qadam qo‘ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o‘zining tub manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shart-sharoitlarga erishdi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, —Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga azmu qaror qildik¹⁸. ‘lumki, o‘z istiqboliga erishgan har qanday jamiyat oldida taraqqiyotning konseptual zaminlarini yaratib olishdek muhim va shu mamlakat istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turadi. Milliy rivojlanish ehtiyojlarini o‘zida to‘liq aks ettirgan siyosiy taraqqiyot modelini shakllantira olgan mamlakatgina izchil va samarali rivojlanish yo‘lidan bora olishini jahon tajribasi bot-bot isbotlab turibdi. SHu jihatdan kelib chiqib, xulosa qilinganda, ta’kidlash joizki, mustaqil mamlakatimizda istiqbolning ilk kunlaridanoq jamiyatimiz taraqqiyotining strategik zaminlari ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur asoslab berildi.

Xalqimizning milliy-ma’naviy negizlari hamda umuminsoniy progressiv qadriyatlarga tayanilgan holda, O‘zbekiston Respublikasining o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li eng zamonaviy konseptual asoslar zaminida bayon qilib berildi va bu bilan mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotning tom ma’nodagi yangi va samarali imkoniyatlari ochildi.

Ichki va tashqi siyosatning yo‘nalishlari, ularning mantiqi to‘laligicha pirovard maqsad – chinakam mustaqil O‘zbekistonni barpo etish maqsadi bilan

¹⁸ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б. 5.

belgilanadi. Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil adolatli jamiyatni bunyod etish – bosh vazifadir. Mehnatsevar va badavlat, ma'naviy etuk va madaniyatli oila – shu jamiyatning asosini tashkil etadi¹.

YUrtimizda amalga oshirib kelinayotgan izchil islohotlar bilan hamohang ravishda jamiyatimiz rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy nazariy qarashlar va xulosalar ham muttasil ravishda takomillashib, rivojlanib kelmoqda. Bu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ilgari surilgan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi jamiyatimiz taraqqiyotining yangi strategik dasturi bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur konsepsiya jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi eng zamonaviy va mukammal ilmiy g'oyalar sirasiga kiradi.

Yurtimiz siyosiy taraqqiyoti, uning konseptual ta'minoti mustahkam bo'lganligi tufayli izchil ravishda ro'y bermoqda. Xalqaro globallashuvning turli salbiy ta'sirlariga nisbatan jamiyatimizning barqaror immuniteti kafolatli ravishda ta'minlanib bormoqda.

Mamlakatimiz istiqloli tufayli amalga oshirib kelinayotgan zamonaviy mustaqil demokratik taraqqiyot bilan bog'liq yangicha ilmiy qarashlar, konseptual xulosalar mohiyatini anglash, o'rganish muhim dolzarb ahamiyatga egadir. Davlat suverenitetiga erishish natijasida mamlakatimiz o'z sotsiomadaniy zaminlariga tayangan holda, rivojlanish imkoniyatlariga bevosita ega bo'ldi. SHu munosabat bilan alohida ta'kidlab o'tish joizki, har qanday yosh mustaqil davlat oldida o'z istiqlolini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatning aniq shart-sharoitlari, ehtiyojlari, maqsadlarini qamrab oluvchi samarali siyosiy taraqqiyot modelini belgilab olish vazifasi turadi. Ushbu masalaning yuqori darajada hal etilishi mamlakatning izchil taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir mamlakat konkret amaliyotidan kelib chiqqan holda, rivojlanish g'oyasini qabul qilinishi ya'ni, taraqqiyotning konseptual asoslarini aniq belgilanishi bu o'rinda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqazo etadi. Dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, SHvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovro'po mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash ham buning amaliy namunasi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi. Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasidir¹⁹.

Ma'lumki, siyosiy taraqqiyot hodisasining mohiyati, asoslari, formalarini o'rganish, tadqiq qilish masalasi insoniyat tarixida doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Bugungi kunda ham mazkur fenomen jamiyat hayotini yaxshilash, barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash, odamlarning erkin va farovon kun kechirishga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarish omili va insoniyatning umrguzaronlik qilishi uchun yanada samaraliroq tizimlarni yaratishning yo'li sifatida ahamiyatini saqlab turibdi. SHu bois ham siyosiy taraqqiyotga sabab bo'luvchi asoslar, omillar haqidagi nazariy qarashlar ham shu paytga qadar evolyusion tarzda rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy fanlarda siyosiy taraqqiyotning turlari haqida fikr yuritilganda dastavval uni ikki katta turga ajratib ko'rsatish ustuvorlik qiladi. Bu o'rinda gap taraqqiyotning evolyusion va inqilobiy usullari haqida bormoqda. Siyosiy taraqqiyotning evolyusion turi o'z ichiga siyosiy taraqqiyotning bir qancha shakllarini qamrab oladi va ijobiy mohiyatga egadir. Taraqqiyotning inqilobiy turi ko'p hollarda salbiy oqibatlariga olib kelishi hamda u tufayli jamiyatda kuchli siyosiy inqirozlar, regress holatlari ro'y berishini tajribalar isbotlagan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida jahonning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda, ayni paytda, jamiyatimizning milliy negizlariga tayanib siyosiy taraqqiyotning evolyusion yo'li tanlab olindi va bunday siyosiy taraqqiyot zaminini zamonaviy demokratiya g'oyalari tashkil etdi. Mazkur g'oya asosida O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishning o'ziga xos ilmiy va amaliy asoslari shakllantirildi.

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak²⁰.

¹⁹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -

Б. 9-10.

²⁰ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -

Б. 15-16.

Mana shunday ulug'vor maqsadlarni ko'zlab siyosiy taraqqiyotni amalga oshirish jarayonida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan muhim qoidaga etakchi o'rin ajratildi. YA'ni, taraqqiyot masalasida O'zbekiston izchil tadrijiy usullarni tanladi: —shok terapiyasidan voz kechdi. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay tamoyili jamiyatni yangilashning asosiy prinsiplaridan biriga aylandi. Ma'lumki, shok terapiyasidan foydalanishga bo'lgan urinishlar nihoyatda og'ir ijtimoiy oqibatlariga olib kelganligi hech kimga sir emas. Yurtimizda ishlab chiqilgan taraqqiyot strategiyasi jamiyatimizni yangilash va rivojlantirishning tub manfaatlarini o'zida chuqur aks ettirib, barqaror taraqqiyot jarayonlari izchilligini to'liq ta'minlanishiga asos bo'ldi.

Mamlakatimiz istiqloli jamiyatimiz taraqqiyotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy sohalarini o'zida to'liq mujassam etgan hamda zamonaviy rivojlanishning barcha prinsiplarini e'tiborga olgan taraqqiyot modelini yaratilishini ob'ektiv zarurat qilib qo'ydi. SHu bilan bir qatorda, yosh mustaqil mamlakatimiz oldida islohotlarning dastlabki bosqichidayoq belgilab olingan bir qator vazifalar taraqqiyotning o'ziga xos milliy modelini yaratishni yanada dolzarb qilib qo'ygan edi. Ma'lumki, ushbu vazifalar quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga qamrab oldi:

Ijtimoiy-siyosiy sohada: ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmi va tuzilmalaridan qutilish hamda davlat qurilishining demokratik, huquqiy tamoyil va me'yorlariga o'tish, fuqarolik jamiyatiga o'tishning poydevorini qurish.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada: insonning ishlab chiqarish vositalaridan begonalashuvidan, rejali-taqsimotchilik tizimidan kechish va ko'p ukladli iqtisodiyotga hamda bozor munosabatlariga o'tish.

Ma'naviyat sohasida: aqidabozlik va o'ta siyosatlashtirilgan mafkura hukmronligidan qutulish, milliy ma'naviyatni shakllantirish.

Xalqaro munosabatlar sohasida: butun dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishdan, o'zni chetga olishdan va unga qarshi turishdan voz kechish, jahon hamjamiyatiga kirib borish va teng huquqli hamkorlikka yo'l ochish.

Islohotlarning mazkur asosiy yo'nalishlari orqali respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning murakkabligi va ulkan miqyoslarini tasavvur qilish mumkin. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini o'z xalqi tarixi va uning ongi-ruhiyatidan, aniq sharoitlaridan kelib chiqib tanladi.

Mamlakatimiz aholisi o'z davlat mustaqilligini butun jahon jamoatchiligi bilan tantanali ravishda nishonlayotgan bugungi kunda, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, bu yo'l tajriba sinovidan o'tdi. Tarixan qisqa, ammo zafarli natijalarga boy bo'lgan taraqqiyotimiz, tanlangan modelning to'g'riligini isbotladi.

Ma'lumki, taraqqiyotning o'zbek modelining mohiyati asosiy g'oyalari eng dastlab Davlatimiz rahbarining O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lil nomli fundamental asarida ko'rsatib o'tilgan edi. Keyinchalik mazkur taraqqiyot modeli haqidagi g'oyalar yanada rivojlantirildi va takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lil, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidal nomli asarlarida taraqqiyotning o'zbek modelining asosiy mazmunini, o'zagini belgilab beruvchi tamoyillar yanada chuqurroq asoslab berildi.

Beshta asosiy qoida O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagidir. Ularning mohiyati quyidagicha:

- birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Buning ma'nosi shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur; ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart; uchinchidan, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim; to'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi; beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi
- inqilobiy sakrashlarisiz, ya'ni evolyusion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Bu qoidalar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi²¹.

Birinchi prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan mazkur tamoyillar timsolida o'z konseptual zaminlariga ko'ra, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni jumladan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlarniamalga oshirishning mustahkam poydevori yaratildi. Jumladan, tamoyillarni mohiyati haqidafikr yuritilgandaquyidagilarni ta'kidlab

²¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-ж. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 300301.

o'tish joizdir: Iqtisodiyotning mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilmasligi va siyosatdan ustunligi tamoyili. Bunda iqtisodiyotni mafkuradanholi etish - demokratikva bozor o'zgarishlarining asosi qilib qo'yildi. Birinchi navbatda, iqtisodiy negizni barpo etishva iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi jamiyat qurishning eng muhim sharti ekanligi uqtirildi. Iqtisodiyot mafkuraviy taziqlarsiz, o'ziga xosichki qonunlarga muvofiq ravishda rivojlanishi lozim.

Davlatning bosh islohotchiligi tamoyili. Davlat - iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisidir. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor - davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir. Davlat iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos bozor shart-sharoitlari vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo'ladi. Ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Davlat bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzilmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish- davlatning burchidir.

Jamiyat hayotida qonun ustuvorligi tamoyili. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash ham zarur. Ijtimoiy yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan qonunchilik asosini yaratish - bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir. Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'i kerak. Qonunning ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy prinsipidir, qonun oldida hamma baravardir.

Kuchli ijtimoiy siyosat - iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli kafolati. Kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplari quyidagilardan iborat:

- aholini ish bilan ta'minlash va mehnat bozorini takomillashtirish. daromad siyosatiniyurgizish, pul daromadlari;
- ijtimoiy ta'minotva ijtimoiykafolatlar, kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash;
- aholigaijtimoiyxizmatlarni ko'rsatish;
- xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash;
- har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha prinsipni ta'minlash;

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich tadrijiy yo'li. Bu - shok terapiyasi yo'lidan tubdan farq qilib, bozor iqtisodiyotiga bosqichmabosqich o'tishni taqazo etadi. YA'ni, iqtisodiyotda, siyosatda ijtimoiy sohada, ma'naviyatda va boshqa sohalarda islohotlar birdaniga amalga oshirilmasdan bosqichma-bosqich o'tishniko'zda tutadi. 22 Taraqqiyotning - o'zbek modeli va uning asosiy tamoyillari mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va

²² Qarang: Алиев Б., Йўлдошев О., Қахҳорова М. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти.Т.: Иқтисодиёт, 2011 й. Б. 32-33.

pirovardida fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda kuchli ijtimoiy himoya tamoyillariga asoslangan erkin bozor munosabatlarini barpo etishda dasturulamal bo‘lib xizmat qildi. Ushbu model islohotlarning barqarorligi va xavfsizligini kafolatli ta‘minlashning etakchi ustuni bo‘lib kelmoqda. Taraqqiyotning -o‘zbek modeli zaminida mamlakatimizda keng qamrovli siyosiy islohotlar amalga oshirildi. Bunda quyidagi muhim jihatlarga e‘tibor qaratildi:

Birinchiidan, siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy davlatchilik asoslari bosqichma-bosqich ravishda barpo qilina boshlandi.

Ikkinchiidan, bu jarayonda jamiyatimiz demokratik taraqqiyoti manfaatlariga to‘liq mos keluvchi siyosiy institutlarni shakllantirish, uning huquqiy asoslarini yaratish masalalariga asosiy e‘tibor qaratildi.

Uchinchiidan, avvalgi totalitar tuzumga xizmat qilgan va umrini tugatib bo‘lgan davlat tuzilmalaridan to‘liq voz kechildi.

Quyidagilar eng asosiy vazifamiz bo‘lib qoldi:

Birinchiidan. Eski ma‘muriy – buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo‘lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish.

Ikkinchiidan. YAngi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish. Konstitutsiya va qonunlarda ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini, ham markazdagi, ham joylardagi davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini mustahkamlab qo‘yish.

YAngi o‘zbek davlatchiligining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro‘y berdi. Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog‘liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu - yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko‘lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vazifasi edi²³. Mamlakatimiz taraqqiyotining - o‘zbek modelining eng bosh g‘oyasi xalqimiz uchun munosib bo‘lgan erkin, farovon hayotni barpo qilishdan iboratdir. Bu borada zamonaviy demokratiya prinsiplarini milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib, jamiyatda qaror toptirish vazifasi ustuvor qilib belgilandi. Ta‘kidlash joizki, jamiyatimizda demokratiya va fuqarolik jamiyati g‘oyasini ijtimoiylashuvi va qaror topishida - o‘zbek modelining barcha konseptual g‘oyalaridan izchillik bilan foydalanib kelinmoqda va shu bois ham ulkan samaralarga erishilmoqda. Zero, jamiyatda demokratiyani joriy qilishning yagona retsepti mavjud emas, har bir mustaqil davlat demokratik taraqqiyot yo‘liga o‘tishda birinchi navbatda o‘zining sotsio-madaniy asoslariga, milliy taraqqiyot modeliga tayanishi lozim bo‘ladi. Faqat shunday holatdagina mamlakatning demokratik taraqqiyoti kutilgan ijobiy natijalarni beradi.

²³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 152-153.

Demokratik islohotlarni amalga oshirishda tadrijiy taraqqiyot uslublariga asoslanildi. Unga ko'ra, demokratiya g'oyasi va uning institutlari jamiyatimiz bag'rida bosqichma-bosqich evolyusion tarzda rivojlantira boshlandi. Demokratiya atamasining qanday 24sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliigi, yashashga qobilligi muhimdir²⁴. Taraqqiyotning - o'zbek modeli g'oyasiga ko'ra, yurtimizda yangi jamiyatni barpo etish uchun amalga oshiriladigan barcha islohotlar zaminiga inson omili qo'yildi. YA'ni - islohot islohot uchun emas, balki, inson manfaatlari, uning, erki va farovonligi uchun, degan g'oya barcha yangilanishlarning asosiy o'zagi etib belgilandi. SHu munosabat bilan qurilayotgan yangi mustaqil davlat va jamiyatning asosiy bunyodkori ham, iste'molchisi ham mana shu yurtning erkin xalqi degan prinsip mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining markazida turuvchi omildir. Mazkur asos zaminida bilan taraqqiyotning - o'zbek modelini amalga oshirishning etakchi shartlaridan biri sifatida ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni tiklash va rivojlantirish vazifalari belgilab olindi. Ta'kidlash joizki, jamiyat taraqqiyotiga nisbatan bunday yondashuv nihoyatda noyob vayangicha yondashuvdir. Zero, har qanday jamiyatning yangilik sari rivojlanishida avvalambor inson omili, undagi ijobiy o'zgarishlar turadi. Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqimizning ma'naviy sarchashmalariga murojaat qilish, boy tarixiy – ma'naviy merosdan yangi jamiyat, yangi hayotni barpo qilishda foydalanish g'oyasining yuksak samaradorligini mamlakatimiz taraqqiyoti natijalari yaqqol namoyon qilib turibdi. Taraqqiyotning - o'zbek modeli²⁵ning ulkan ahamiyati to'g'risida to'xtalib, shunday ta'kidlagan edi: - Biz islohotlarni inqilobiy usulda, ya'ni - shok terapiyasi yo'li bilan amalga oshirishdan ongli ravishda voz kechib, tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni qanday og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Taraqqiyotning - o'zbek modeli²⁵mamlakatimizda yangi fuqarolik jamiyatini barpo etishning har tomonlama mukammal va samarali bo'lgan usuli sifatida jamiyatimiz taraqqiyotining bugungi kundagi dolzarb vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ham mustahkam zamin bo'lib hizmat qilmoqda. O'zbekistonning beshta ustuvor yo'nalish – tamoyildan iborat bo'lgan, dunyoda taraqqiyotning - o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'li har tomonlama to'g'ri yo'l ekanini o'tgan tariximiz isbotladi. Biz katta yo'lga chiqib oldik va uning amaliy natijalaridan barchamiz har kuni bahramand

²⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 180.

²⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 137.

bo‘lmoqdamiz. SHuning uchun ishonchim komil: yurtimizda xech kim eski davrga qaytishni xohlamaydi... Biz erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash uchun ertangi kunimiz yorug‘ kelajagimiz o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan yuksak marralarga etish yo‘lida chuqur o‘ylangan taraqqiyot strategiyamizning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirmog‘imiz zarur²⁶. Mamlakatimizda yangi jamiyatni barpo etishning - o‘zbek modeli mustaqil yurtimizning barcha sohalarida izchil taraqqiy qilishining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy zamini bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu tamoyil jamiyatimizning istiqboldagi rivoji uchun ham kafolatli manba va fundamental asosdir.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot strategiyasining bosh g‘oyasi bu xalqimiz uchun munosib bo‘lgan erkin, farovon hayotni barpo qilish va uni mutassil rivojlantirib borishdan iboratdir. Zero, jahon tajribalari ham isbotlab turganidek, aynan fuqarolik jamiyati sharoitida inson hayotini tashkil etish, uning haq-huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng samarali va maqbul bo‘lgan imkoniyatlari vujudga keladi. Fuqarolik jamiyati insoniyat jamiyatini tashkil etishning eng zamonaviy va takomillashgan usuli sifatida barcha tomonidan e’tirof etilayotgani ham bejiz emas. Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishida ko‘maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. YA’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi, bir-birini to‘ldiradi va birbirini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. SHuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so‘zsiz rioya qilishlari shart²⁷. Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, taraqqiyotning - o‘zbek modeli doirasida mamlakatimizda zamonaviy huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan barcha asoslar mavjuddir. Mazkur model tarkibida mujassam bo‘lgan tamoyillar mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, huquqiy zaminlarini vujudga keltirish uchun kuchli imkoniyatlarga egadir. Zero, ushbu tamoyillar va unga asoslanuvchi konseptual g‘oyalarda fuqarolik jamiyatining mohiyati, vazifalari, shakllanish qonuniyatlari, xalqimiz dunyoqarashi va extiyojlaridan kelib chiquvchi barcha jihatlar o‘z aksini topgandir. Jumladan, - o‘zbek modeli fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, institutsional zaminlari va eng muhimi demokratik g‘oyalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mustahkam asoslarni o‘zida mujassamlashtirgandir. Xususan, yurtboshimiz tomonidan asoslab berilgan Kuchli

²⁶ Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б. 134.

²⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 173.

davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari konsepsiyasi ushbu tamoyilning etakchi o'zagini tashkil etadi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarining strategik yo'nalishlarini belgilanishida taraqqiyotning o'zbek modeli mohiyatidan kelib chiquvchi barcha tamoyillar etakchi asos vazifasini o'tamoqda. Xususan, ushbu jarayonlarda davlatning bosh islohotchilik rolini alohida ko'rsatib o'tish lozimdir. Mustaqil davlatimiz tomonidan avvalambor mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning g'oyaviy va huquqiy asoslari belgilab berildi. Mamlakatimiz siyosiy taraqqiyot yo'lining o'zagi sifatida demokratiyani tanlab olinishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha fundamental asoslarni barpo qilish imkoniyatlarini ochib berdi. Zero, demokratiya g'oyasi o'z taraqqiyotining etakchi yo'nalishi sifatida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirib borilishini taqazo etadi. SHu munosabat bilan ta'kidlash joizki, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyati, shakllanish qonuniyatlarini tashkil qiluvchi eng etakchi manbalar hisoblanadi. YUrtimizda milliy taraqqiyot modeli asosida huquqiy demokratik davlatning institutsional zaminlari:

davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo'linishi prinsipiga asoslanishi;

demokratik Konstitutsiyaning qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro'yobga chiqaruvchi mexanizmlarni yaratilishi; - erkin demokratik saylov tizimini kafolatlanishi;

davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda ko'ppartiyaviylik tizimining yaratilishi;

jamoat birlashmalari va nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yilishi;

fuqarolar o'z-o'zini boshqarish institutlarini rivojlantirilishi;

fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va extiyojlarini ta'minlashning samarali zaminlarini vujudga keltirilishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etildi.

Bularning natijasida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun eng asosiy kuch va manba bo'lib xizmat qiladigan zamonaviy huquqiy demokratik davlat asoslari rivojlantirildi. Ma'lumki, huquqiy davlat demokratiya tamoyillari asosida shakllantiriladi. Ayni vaqtda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va uning mohiyatini tashkil qiluvchi barcha jihatlarini jamiyatda qaror topishi uchun etakchi zamin bo'lib xizmat qiladi. YA'ni fuqarolik jamiyatini shakllanishi bosqichlarida demokratlashuv jarayonlari, huquqiy davlatning shakllanishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Demokratlashuv jarayonlari fuqarolik jamiyati mohiyatini tashkil qiluvchi shaxs erkinligi, tengligi, ozodligi, tinchligi, farovonligi, daxlsizligi kabi buyuk ne'matlarni ro'yobga chiqarsa, huquqiy davlat –

fuqarolarning ana shu ne'matlardan kafolatli foydalanishning huquqiy zaminlarini ta'minlab beradi. Zero, huquqiy davlat o'z mohiyatiga ko'ra huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligini kafolatlaydi, inson huquq va erkinliklarini to'liq tan olinishi va hurmat qilinishini ta'minlab beradi, fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati, shaxs bilan davlat o'rtasidagi o'zaro demokratik hamkorlik prinsiplariga tayanadi, huquq va tartibotning barqarorligini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishiga xizmat qiluvchi huquqiy davlat asoslarini yaratish jarayonida davlatimizning bosh qomusi – Konstitutsiyamiz ulkan ahamiyatga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Konstitutsiyamiz konsepsiyasi va huquqiy normalarida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha yuridik qoidalar mujassamlashgandir. Jumladan, Asosiy qonunimizning 15-moddasida ta'kidlanganidek: O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar²⁸. Mazkur Konstitutsiya normalari bugungi kunda, demokratiyaning etakchi mohiyati bo'lgan – xalq hokimiyatchiligining amalga oshirilishi va hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi demokratik muvozanatni mustahkamlanishi uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda. SHu munosabat bilan mamlakatimiz Konstitutsiyasi konseptual zaminlarini evolyusion tarzda jamiyatimiz taraqqiyoti manfaatlaridan kelib chiqib, takomillashtirib borilayotganligi muxim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini yanada chuqurlashuviga etakchi huquqiy asos vazifasini o'tamoqda. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirilishida taraqqiyotning —o'zbek modelining muhim tamoyili bo'lgan islohotlarni evolyusion tarzda amalga oshirish masalasiga etakchi ahamiyat qaratib kelinmoqda. Zero, fuqarolik jamiyatini jamiyatda qaror topishi faqatgina tadrijiy yo'l bilan ta'minlanishi mumkindir. Biz tanlagan bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talabalarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, shoshmashosharlik, turli inqilobiy to'ntarishlar yo'li qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bugun hayotning o'zi isbotlab bermoqda²⁹. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishda dastavval siyosiy institutsional va huquqiy zaminlarini vujudga keltirishga alohida katta ahamiyat

²⁸ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2014. - Б. 7.

²⁹ Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б. 126-127.

qaratildi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun, dastavval vakillik demokratiyasining tayanch ustuni bo'lgan professional parlament shakllantirildi, 1992 yil 8 dekabrda demokratik mohiyatga ega bo'lgan O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi, aholi keng qatlamlari manfaatlarini aks ettirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, ko'ppartiyaviylik tizimi shakllantirildi, demokratik taraqqiyot jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy o'zagini tashkil etuvchi erkin bozor munosabatlarining huquqiy va institutsional asoslari vujudga keltirildi. Bularning natijasida jamiyatimizda demokratik islohotlarni ro'y berishi uchun siyosiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlar bazasi yaratildi, demokratik islohotlarning rivojlanishi uchun istiqbolli imkoniyatlar vujudga keltirildi. Demokratiyaga o'tish davrining dastlabki bosqichida amalga oshirilgan siyosiy, tashkiliy chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda demokratik jarayonlarning barqarorligi ta'minlandi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning asosiy bosqichlari to'g'risida to'xtalib, shunday xulosa qilgan edi: —O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich - 1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'ldi. 2001 yildan 2010 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – mamlakatimizni faol demokratik yangilanish, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallashtirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi va shu yo'llarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak-bug'in bo'lib xizmat qildi³⁰. Mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari o'zining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu borada hayotning ana shunday talab va mezonlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va o'tgan davr mobaynida izchil joriy etib kelinayotgan, amalda o'zini oqlagan, o'zbek modelil deb nom olgan taraqqiyot yo'limiz va Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi o'rta va uzoq istiqbolda biz uchun kelajak Strategiyasi bo'lib xizmat qilmoqda, aniq yo'lni ko'rsatmoqda³¹. Mamlakatimizdayangi jamiyatni barpo qilishning o'zbek modeli o'zining tub mohiyatiga ko'ra yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha konseptual asoslarga ega bo'lgan siyosiy, huquqiy manba bo'lganligi tufayli uning zaminlarida amalga

³⁰ Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б. 125-126.

³¹ Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи ташкилий йиғилишидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2015 йил 13 январь. №7 (6190)

oshirilayotgan barcha islohotlarning yuksak samaralarga erishuvi kuchli darajada kafolatlangandir.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ning ma'no-mazmuni.

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'рни va faoliyati samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

«Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish; elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan

yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rni bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonolari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsulдорlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan

ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan

ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

Akademik litsey, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;
yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;
yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

5.2. CHuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot etkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Nazorat savollari:

1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va unda ilgari surilgan g‘oyalar.
2. O‘zbekistonning rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi va uning ahamiyati.
3. I.A.Karimov va SH.M.Mirziyoev asarlarida O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining ilmiy-metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.
4. SH.Mirziyoevning asarlarida xalq farovonligini oshirish masalalari.
5. O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha besh ustuvor yo‘nalish – Harakatlar strategiyasida ijtimoiy munosabatlarni hal etilishi.
6. Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston taraqqiyoti uchun muhim yo‘l.
7. Harakatlar strategiyasida mamlakatimiz iqtisodiy ahvolini tubdan o‘zgartirish masalalari.
8. Harakatlar strategiyasida qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yilishi va uning ahamiyati.
9. SH.Mirziyoev asarlari, nutqlari, ma’ruzalari va Oliy Maslisga yo‘llagan murojaatlarida ilgari surilgan rivojlanish asoslarining yoritilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. M.Bekmurodov va boshq. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T.: “G‘ofur G‘ulom NMIU”. 2017, - 236 b.
4. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
5. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

4-mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati

Reja:

1. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar. YAngi taraqqiyot bosqichida mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar.
2. O‘zbekistonni rivojlanishining “Buyuk kelajak dasturi”. YAngi taraqqiyot bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” g‘oyasini ilgari surilishi.
3. Milliy yuksalish sari amalga oshirilayotgan ishlar va istiqbollari.

«**BUYUK KELAJAK**» xalqaro nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning xorijda yashayotgan yurtdoshlarimizni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga daxldor bo‘lishlariga qilingan da‘vatlariga javob bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘maklashmoqchi bo‘lgan barchaning sa‘yi-harakatlarini birlashtirish, davlat va jamiyatni har tomonlama va jadal rivojlantirish maqsadida 2018 yilning aprel oyida «**BUYUK KELAJAK**» XNNT tashkil etilgan edi. «**BUYUK KELAJAK**» XNNT faoliyatining modeli ilg‘or xalqaro tajriba, O‘zbekiston bozorlarini xolisona tahlil qilish, eng asosiysi, etakchi dunyo mutaxassislarining shaxsiy tajribasi negizida qurilgan. Xorijda yashayotgan va tahsil olayotgan, o‘z kasbiy faoliyatini O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirib kelayotgan kelib chiqishi O‘zbekistonlik bo‘lgan – turli sohalarning etakchi mutaxassislaridan iborat Ekspert kengashi «**BUYUK KELAJAK**» XNNT asosiy intellektual salohiyati va aktivi hisoblanadi. Bugungi kunda Ekspert kengashi 20 tadan ziyod mamlakatlarda, shu jumladan Rossiya, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Kanada, Daniya, SHveysariya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, YAponiya, Turkiy, Qozog‘iston, Finlyandiya va boshqa davlatlarda yashab kelayotgan 190 dan ko‘proq mutaxassis-yurtdoshlarimizni o‘zida birlashtirgan.

«**BUYUK KELAJAK**» XNNT o‘z maqsadlariga erishish uchun ushbu bosqichda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: xalqaro tashkilotlar va ekspertlar, fuqarolik jamiyatlar va institutlarning tajribasini o‘rganish asosida, xorijda va O‘zbekiston Respublikasida ishlab kelayotgan yurtdoshlarimizning fikrlarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini ishlab chiqish va amalga oshirilishiga ko‘maklashish; aniq tashabbuslar hamda qonunchilik va me‘yoriy hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha tavsiyalarni ko‘rsatgan holda, tatbiq etish bosqichlariga bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelining strategiyasini joriy etish bo‘yicha yo‘l xaritasini ishlab chiqish. turmush darajasini oshirishga, inson kapitalining sifatini yaxshilashga, uzoq muddatli investitsiyalar bozorini rivojlantirishga va davlat hokimiyati institutlarini isloh qilishga urg‘u bergan holda, «**BUYUK KELAJAK**» XNNT 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarga ekspertli qo‘llab-quvvatlashni ham ko‘rsatib keladi.

2018 yilning aprel oyida tashkil etilgan "Buyuk kelajak" o‘zida dunyoning 20 dan ortiq davlatida mehnat qilayotgan 300 dan ziyod asli kelib chiqishi

o'zbekistonlik bo'lgan turli soha mutaxassislarini birlashtirgan bo'lib, ularning ko'magi va tavsiyasi asosida O'zbekistonning rivojlanish yo'llarini ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

"**BUYUK KELAJAK**" xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti (keyinchalik "XNNT") 2018 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan. XNNTning asosiy tahlil qiluvchi organi bo'lib 30-dan ortiq mamlakatlarda tajriba orttirgan 240-dan ortiq tajribali yurtdoshlarimizni birlashtirgan - Ekspertlar kengashi hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga ko'mak berish, islohotlarning samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatni jadal rivojlantirish yo'lida ekspert maslahatlari bilan qo'llab-quvvatlash tashkilotning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu hujjatda keltirilgan ma'lumotlar umumiy xususiyatga ega bo'lib, u yoki bu shaxs yoxud tashkilotning muayyan ahvolini hisobga olmasdan tayyorlangan. Garchi biz har doim o'z vaqtida va aniq ma'lumotni taqdim etishga intilsak ham, ammo biz ushbu ma'lumot olingan vaqtdagidek aniq bo'lishi yoki kelajakda xuddi shu tarzda aniq bo'lib qolishiga kafolat bera olmaymiz. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan holda biror-bir harakatni faqat tegishli mutaxassislar bilan maslahatlashish va muayyan vaziyatni batafsil tahlil qilish asosida amalga oshirish mumkin.

Hujjatda taqdim etilgan ma'lumotlar keng jamoatchilik foydalanadigan manbalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga va "**BUYUK KELAJAK**" XNNT loyihasining ishchi guruhiga taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslangan.

U tadqiqot o'tkazish vaqtida mavjud bo'lgan qarashlar va shart-sharoitlarni aks ettiradi, va ular vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

Tadqiqotni tayyorlashda loyiha ishchi guruhi hujjatning asosini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shu jumladan, ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar va uchinchi tomonlar tarafidan taqdim etilgan ma'lumotlar, qo'shimcha ravishda mustaqil baho bermasdan, to'liq, aniq va ishonchli ekanligini nazarda tutgan.

Loyihaning ishchi guruhi uchinchi tomon, hamda ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarning to'liq emasligi, noaniqligi, noto'g'riligi sabab bo'lgan hujjatdagi xatolar va / yoki noaniqliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga qabul qilmaydi va olmaydi.

Hujjatda ishchi guruh tomonidan keltirilgan u yoki bu tendensiya yoki holatning kelajakda rivojlanishi bo'yicha taxminlar umumiy ma'lumot uchun tayyorlangan – berilgan ko'rsatkichlarning qiymatlari 2035 yilgacha O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasining konsepsiyasida aks ettirilgan ssenariylar, variantlar va strategik tashabbuslarning sonlardagi ifodalanishi hisoblanadi va strategiya tashabbuslarini amalga oshirish doirasida qabul qilingan yoki qilinmagan siyosiy va boshqaruv qarorlariga bog'liq.

Loyiha ishchi guruhi tomonidan tahlil vijdonan bajarilgani bilan taxminlar, hisob-kitoblar va natijalarning aniqligi, to‘liqligi va to‘g‘riligiga nisbatan hech qanday yaqqol ifodalangan yoki nazarda tutilgan kafolat berilmaydi.

Loyiha ishchi guruhi hujjatda keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan har qanday harakatlar, qarorlar, fikrlar uchun javobgar emas.

Ushbu hujjatda keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda biror-bir qaror qabul qilishdan oldin yoki o‘ziga qandaydir majburiyatni qabul qilishdan oldin barcha tomonlarga o‘z tahlillarini va zarur tekshiruvlarni o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Strategiya Konsepsiyasini ishlab chiqishdan 2018 yil iyundan dekabrga to ommaviy tinglovlarni amalga oshirilgunga qadar 2019 yil yanvardan avgustgacha bir qator faktorlar o‘zgardi.

Xususan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (valyuta kursi, inflyasiya darajasi va boshqalar) va statistika sohasida siyosat (“Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, mamlakatning statistik salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qaror) yangilandi, muayyan islohotlar o‘tkazilmoqda (soliq tizimini isloh qilish buyicha konsepsiya tayyorlandi), yangi meyyoriy xujjatlar qabul qilindi (masalan, "Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan er maydonlarini xususiylashtirish to‘g‘risida" gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari 2019 yil 15 mart, №140 sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 6 may buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi № 03 / 1-1622, Prezident ma‘muriyatining O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga 2019 yil 1 maydagi №06 / 1- 1536-sonli buyrug‘i), strategik xujjatlar qabul qilindi (masalan, 2025 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi), 2030 yilgacha kimyo sanoatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari aniqlandi. va h.k. YUqorida keltirilgan yangilanishlarga qaramay, tanlangan strategik ustuvorliklar va umuman rivojlanish yo‘nalishi nuqtai nazaridan, Strategiya konsepsiyasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

«O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirmoqchimiz». «Buyuk kelajak» ekspertlari bilan intervyu

5-6 fevral kunlari Toshkentda «O‘zbekiston-2035» Ikkinchi xalqaro forumi tashkil etildi. Ikki kun davomida «Buyuk Kelajak» XNNT ekspertlari 2035 yilga qadar O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi konsepsiyasi loyihasi uchun o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha taqdimotlarni namoyish etishdi. Kun.uz muxbiri ushbu kengashning a‘zolari bilan suhbat qurib, ularning rejalari va faoliyatlari haqida so‘radi.

«Buyuk kelajak» ekspertlari kelib chiqishi O‘zbekistondan bo‘lgan, xorijda professional muvaffaqiyatlarga erishgan mutaxassislar bo‘lib, ular kengash orqali

kelgusi 16 yil ichida mamlakat taraqqiyoti haqidagi o'z fikrlari bilan bo'lishishadi va yangi strategik rejalarni ishlab chiqishadi.

Umid Mamadaminov, AQSHdagi Oregon texnologiya instituti bitiruvchisi, Amerikaning energetika-arxitektura sohasidagi eng yirik kompaniyalaridan biri STANTEC'ning sobiq xodimi:

«Men o'tgan yili «Buyuk kelajak» ekspertlar kengashiga a'zo bo'lgandim. Biz o'zimizning sohadagi yangi g'oyalarni O'zbekistondan tatbiq qilishni boshladik. Mazkur tashkilot tashabbusi orqali 2018 yilda bo'lib o'tgan forumda mamlakatdagi bo'layotgan katta islohotlarni ko'rib, yurtimga qaytib, tadbirkorlik faoliyatimni boshlashga qaror qildim. Avvaliga, ishni boshlaganimizda to'siqlar ham paydo bo'ldi. YUqorida islohotlar juda ham yaxshi ketayotgan bir mahalda quyi sohada ayrim muammoli masalalar vujudga keldi. Misol uchun, viloyatlarda zavod qurishga investitsiya kiritib, er olmoqchi bo'ganimizda joy olish bo'yicha muammolar yuzaga keldi. Biroq tegishli organlar yordami bilan Jizzaxda qishloq xo'jaliklari mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha o'z faoliyatimizni boshladik. O'tgan yili mart oyida har bir hududda bir-ikkita klaster tashkil etish bo'yicha prezidentning qarori qabul qilindi. Endi biz shu tizimni joriy qilish uchun dukkakli mahsulotlar klasterini tashkil qilib, O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish niyatidamiz. 2019 yilda yanvar oyida 30 ming tonnali dukkak mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy zavodimiz ishga tushdi. Endi bu zavodni xom ashyo bilan ta'minlash uchun mahsulotni ekishga er olmoqdamiz. Reja bo'yicha, eng kamida 15 ming gektar maydonga ekin ekishimiz kerak va bu mahsulotlar 100 foizi xorijga, ya'ni AQSH, Evropa, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlariga eksport qilinadi».

Aziz Karimov, **CIMMYT** markazining Turkiyadagi boshqarmasi mutaxassisi, O'zbekistondagi bir qancha loyihalar koordinatori:

«Buyuk kelajak»ning bir yil ichida amalga oshirgan ishlari tahsinga loyiq. Sababi, bu erda eng asosiy omil - vaqt, barcha mutaxassislar o'z ishlari, loyihalari bilan band. SHu sababli, tashkilot dunyoning turli burchaklarida yashab, faoliyat olib boradigan o'zbeklarni bir erda to'plab, katta loyihalarni amalga oshirayotgani kishini quvontiradi. Biz boshida olgan tajribalar hozirda katta maqsadlarni amalga oshirishda qo'l kelmoqda. Men Qishloq xo'jaligi va to'qimachilik yo'nalishida ish olib boraman. Mazkur sohada so'nggi ikki yil ichida sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ldi. Bu esa qishloq xo'jaligi va shunga yaqin sohalarda ishlovchi ekspertlar zimmasiga mas'uliyat yuklaydi, biz mana shu o'zgarishlarni to'g'ri tahlil qila olib, kelajakni odindan yaxshi ko'ra olishimiz kerak. Forumda xo'jalikka kirib kelayotgan yangi yo'nalishlardan biri - klaster tizimi bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar, kamchiliklar, echimlar haqida suhbatlashamiz».

Nasiba SHaripova, Londondagi PwC kompaniyasining konsalting xizmatlari bo'yicha bosh menejeri:

«Men Angliyadagi korxonaning O'zbekistondagi filialini rivojlantirish uchun uchib keldim. Hozirda katta islohotlar bo'layotgani sababli bizning konsalting xizmatlarimizga bo'lgan talab ham ortadi. SHu sababli, hozirda mijozlar fikrini o'rganib, o'z xizmatlarimizni taqdim etish niyatidamiz. «Buyuk kelajak»da turli soha vakillari bilan tanishib, ular bilan fikr almashishning o'zi qiziq. Ekspertlar dunyoning turli davlatlaridan o'sha davlat standartlari bo'yicha rivojlanib kelishgan va bu O'zbekistonning rivojlanish strategiyasiga o'z hissasini qo'shadi. Ular albatta, imkoniyat, sharoit bo'lsa O'zbekistonga qaytishmoqchi. Bu erda mablag' masalasi ham juda muhim. Sababi, endi ular talaba emas, ko'plab ekspertlarning oilasi, farzandlari mavjud. Biroq eng katta sabab - rivojlana olishiga ko'zi etishidir. Agarda mutaxassis sifatida rivojlanishga ishonilsa, imkoniyat ko'p. Biz bu kabi imkoniyatlarni boshqa davlatdan topa olmasligimiz mumkin. Men o'z kompaniyam bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyodagi filiallarimizda hamyurtlarimizga konsalting xizmatlari bo'yicha yordam berishga tayyorman».

Nazorat savollari:

1. "Buyuk kelajak dasturi"ning mazmun-mohiyati
2. "Buyuk kelajak dasturi"ning mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishda o'rni va roli
3. "Buyuk kelajak dasturi"ning ahamiyati.
4. Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati
5. Ekspert kengashi vazifasi.
6. Strategiya konsepsiyasi va uning ahamiyati.
7. O'zbekistonda valyuta kursi va uning barqarorlashtirish vazifalari.
8. O'zbekistonda inflyasiya darajasi oldini olishda xorij tajribasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b

5-mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalar - O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbqiq etishning asosi

Reja:

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” shiorining mazmun-mohiyati. “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” mazmundagi olib borilayotgan davlat siyosati. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston taraqqiyotining kafolati.

2. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbqiq etishning asosiy yo‘nalishlari.

3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va adolatli jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishlari va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi qisqa davrdagi faoliyati davomida aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini beruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo‘jalik boshqaruvi organlari, barcha darajadagi hokimiyatlar bilan fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmiga aylandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, murojaatlarning aksariyat qismi tadbqirkorlik sub’ektlarining rivojlanishiga xalaqit berayotgan to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish, qonunchilikka zid bo‘lgan idoraviy qarorlarni bekor qilish, ishga joylashish, sog‘liqni saqlash, bank kreditlaridan erkin foydalanish, uy-joy-kommunal va yo‘l-transport xizmatlari sifatini yaxshilash masalalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining faoliyati yuzasidan kelib tushmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi faoliyati davlat organlarining murojaatlar bilan bog‘liq ishni tashkil etishda ularni ko‘rib chiqish tartibi va muddatlariga, rasmiyatchilik, byurokratizm va sansalorlik holatlariga doir qator tizimli kamchiliklarni aniqladi.

2017 yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e‘lon qilingani munosabati bilan hamda aholining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi ishi to‘g‘risidagi ko‘plab ijobiy fikrlarini e‘tiborga olib, barcha

darajadagi davlat organlari faoliyatida «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyilni amalda qaror toptirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida:

1. Quyidagilar tuzilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari (bundan buyon — Xalq qabulxonalari) — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (bundan buyon — Virtual qabulxona).

2. Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (bundan buyon — murojaatlar) bilan ishlashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta‘minlash;

fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga (bundan buyon — davlat organlari) va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qat’iy amal qilgan holda, to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o‘tkazish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish.

2016 yilda bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvlarida men bir narsaga amin bo‘ldim. Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo‘ydik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o‘ringa tushib qoldi. Hozirgi vaqtda odamlar davlat idoralaridan nimani istayapti? Bu haqda gapirganda, e‘tiboringizni muhim bir masalaga qaratmoqchiman.

Xabaringiz bor, shu yil 25 sentyabrda Bosh vazirning internet tarmog‘ida elektron qabulxonasi tashkil etilgan edi. O‘tgan davrda ushbu qabulxonaga fuqarolarimizdan **218 mingdan ortiq murojaat** kelib tushdi. Murojaatlarning qariyb 59 foizi echimini topgan bo‘lsa, 41 foizi ko‘rib chiqilmokda.

Ochiq aytishim kerak, **bu murojaatlar tahlilidan ko‘p narsa ayon bo‘ldi.** Ta‘bir joiz bo‘lsa, ular hayotimizda mavjud bo‘lgan o‘tkir muammolarga ko‘zimizni ochib berdi.

Mana, odamlar nimalar haqida murojaat qilmoqda. Avvalo, ular turli sohalardagi byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, qonunga zid bo‘lgan ko‘plab idoraviy yo‘riqnomalarni bekor qilish, stavkasi optimal bo‘lgan bank kreditlari ajratish, tadbirkorlik bo‘yicha noqonuniy tekshirishlarga barham berish haqida, huquq-tartibot idoralarining faoliyati haqida murojaat qilmoqda.

SHu bilan birga, aholimizdan uy-joy qurilishi, kommunal, transport va savdo xizmati, energiya ta‘minotini, yo‘llarning holatini yaxshilash bo‘yicha ham ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda.

Ko‘rib turibsizki, aziz do‘stlar, bu talablarning barchasi qonuniy va adolatli. Bu borada ortiqcha izohning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Lekin shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: **mana shu murojaatlarda ko‘tarilgan hayotiy muammolarni joylardagi hokimlik va idoralar, tegishli mutasaddilar o‘z vaqtida hal etishi zarur emasmi?** Holbuki, bu masalada alohida qonun, ya‘ni, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Lekin, ming afsuski, bu qonunning ijrosini nazorat qilish o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

SHu sababli ana shu qonun talablarini bajarmayotgan rahbar va mansabdor shaxslarni nafaqat ma‘muriy, balki jinoiy javobgarlikka tortish zarur, deb hisoblayman.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur.

SHu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkni himoya qilish yuzasidan yaqinda qabul qilingan Farmon talablariga so‘zsiz amal qilishni ta‘minlash shart. Nega deganda, **xalq boy bo‘lsa, davlat ham albatta boy va qudratli bo‘ladi.**

SHu nuqtai nazardan qaraganda, xalq bilan muloqot va inson manfaatlari tushunchalari o‘zaro shunchalik bog‘lanib ketganki, ularni bir-biridan aslo ajratib bo‘lmaydi.

Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda, barcha qonun hujjatlarida xalq bilan muloqot tizimi haqidagi normalarni aniq belgilab qo‘yish lozim, deb hisoblayman.

Ana shu fikr-mulohazalarning barchasini hisobga olib, kirib kelayotgan 2017 yilni yurtimizda **“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”** deb e‘lon qilishni taklif etaman.

Prezident SH.Mirziyoev quyidagi eng dolzarb va ustuvor vazifalarni belgilab berdi:

Avvalo, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”ning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, davlat organlarining fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlari yuzasidan yondashuvni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Bu borada aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishimiz darkor.

Biz aholi eng ko‘p murojaat qiladigan davlat idoralari faoliyatida odamlar bilan ishlash bo‘yicha sifat jihatidan mutlaqo yangi tizimga o‘tish haqida o‘ylayapmiz. Xususan, 2017 yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi.

SHu bilan birga, har bir tuman va shaharda **“Xalq qabulxonalari”**ni tashkil etish va ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashimiz zarur.

Aytish kerakki, bunday qabulxonalar siyosiy partiyalar, jumladan, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tizimida faoliyat ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir. CHunki siyosiy partiya fuqarolarning maqsad va manfaatlarini ro‘yobga chiqaradigan kuch sifatida odamlar hayotidagi muammolardan doimo xabardor bo‘lishi kerak.

Ayni vaqtda bu qabulxonalarning huquqiy maqomini, ularning vakolat va majburiyatlarini ham aniq belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Bizning asosiy maqsadimiz – “Xalq qabulxonalari”ga qilingan hech bir murojaat e‘tiborsiz qolmaydigan tizim yaratishdan iborat.

Muxtasar aytganda, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini engil qilish – aholining davlat va jamiyatga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda aholiga kundalik va eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini “yagona darcha” prinsipi bo'yicha bir idora orqali ko'rsatish tizimini takomillashtirishimiz kerak.

Bundan tashqari, har bir hududdagi vaziyatni, avvalo, farmon va qarorlar ijrosini, ularning samaradorligini doimiy ravishda o'rganib, bu borada davlat organlari mas'uliyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadigan tizimni shakllantirishimiz kerak.

Fursatdan foydalanib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati rahbariyati, deputatlar va senatorlarga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman.

YA'ni, parlament va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish maqsadida shahar va tumanlarda haqiqiy ahvolni o'rganib, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritish tartibini joriy etishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Har qaysi viloyatdan, masalan, Surxondaryodan saylangan Oliy Majlis deputatlari va senatorlar har oyda 10-12 kun davomida bir tumanda, aytaylik, Muzrabot tumanida bo'lib, o'zlari saylangan hududdagi ijroiya hokimiyat organi, prokuratura va ichki ishlar bo'limining faoliyatini o'rganib, tahlil qilishi va tegishli xulosa berishi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Ma'lumki, hozirgi kunda Oliy Majlisimiz Senati tomonidan har yili Bosh prokuraturaning hisoboti eshitiladi. Bu albatta muhim, lekin joylardagi, masalan, uzoq Olot tumanida mahalliy hokimliklar, prokuratura va ichki ishlar bo'limlarining hisobotini kim eshitadi?

SHu nuqtai nazardan qaraganda, Birinchi Prezidentimiz joriy etgan tizim asosida hurmatli **Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat raisi joylarga chiqqanlarida mahalliy hokimliklar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlaridan ular o'z zimmasidagi vazifalarni qay darajada ijro etayotganiga, aholini o'ylantirayotgan muammolarni, ularning murojaatlarini qanday hal qilayotganiga** alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Bu boradagi ishlarni tashkil etishda parlament so'rovi, tegishli davlat idoralari rahbarlari axborotlarini eshitish kabi vakolatlardan keng foydalanish kerak.

O'tkazilgan barcha o'rganishlar natijalarini umumlashtirib, har yili bir marta ichki ishlar vazirining eng avvalo profilaktika sohasidagi faoliyati yuzasidan hisobotini Senatda eshitish amaliyotini joriy etish ham to'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

SHu maqsadda **Oliy Majlis 2017 yildan boshlab har qaysi viloyat bo'yicha bir yilga mo'ljallangan ish rejasini** belgilab olishi o'rinli bo'lardi.

Kelgusida biz mahalliy hokimlarni bevosita xalq tomonidan saylash masalasi haqida ham o'ylab, muhokama qilib ko'rishimiz kerak. Har bir hudud o'z rahbarini o'zi saylasa, rahbarlarning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini keskin oshirishga erishish mumkin.

Hozirgina bayon qilingan ustuvor vazifalar davlat boshqaruvi tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Bu borada **2017-2021 yillarga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasida ma'muriy boshqaruv sohasidagi islohotlar konsepsiyasini** qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

Ushbu konsepsiyaga muvofiq, davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini, vazifa va vakolatlarni optimallashtirish, ularning o'ziga xos bo'lmagan, takrorlanadigan funksiyalarini hamda xodimlar umumiy sonini qisqartirish, shuningdek, davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini keskin kamaytirish bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshiriladi.

Prezident devoni va Vazirlar Mahkamasi ijro apparati faoliyatini takomillashtirishga, qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar samarali amalga oshirilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz.

SHu bilan birga, **davlat xizmati institutini isloh etish,** davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta'minoti, ularning kasbiy tayyorgarligini tubdan takomillashtirish, bu sohaga yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar kadrlarni jalb etish bo'yicha samarali tizim yaratiladi.

Ana shu masalalarning barchasi yaqinda ishlab chiqiladigan **"Davlat xizmati to'g'risida"**gi qonunda o'z ifodasini topadi.

SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi sahifa ochilayotganini ko'rsatib berdi. Prezident o'z nutqida ilgari surgan "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya xalq manfaatlari davlat siyosatida ustuvorlik kasb etganining belgisidir.

SHavkat Mirziyoev buni keng shaklda ochiqlab, **"Hammamizni tarbiyalagan, voyaga etkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. SHunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. SHunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa,**

ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi,” dedi. Bu so‘zlar kelgusi davr o‘zbek davlatchiligi tizimi uchun qonuniyatga aylanishi shubhasiz.

«Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» — Prezident nutqi

31 avgust kuni poytaxtimizdagi Xalqaro forumlar saroyida O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilliga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Unda Prezident SHavkat Mirziyoev nutq so‘zladi va quyidagilarni ta’kidladi:

Avvalambor, mana shunday qutlug‘ kunda siz, azizlarni va butun xalqimizni eng ulug‘ va eng aziz bayramimiz — Mustaqillik kuni bilan chin qalbindan samimiy tabriklab, o‘zimning eng ezgu tilaklarimni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Bundan roppa-rosa yigirma olti yil muqaddam Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘anievich Karimov O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qildi.

SHu kundan e’tiboran jahon xaritasida yangi mustaqil va suveren davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

Jonajon Vatanimizning ko‘p ming yillik tarixida yangi davr — erkinlik va ozodlik, milliy tiklanish va taraqqiyot davri boshlandi.

Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqlol yillarida bosib o‘tgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g‘oyat sharaflı yo‘limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o‘z taqdirimizni o‘zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz.

Albatta, ushbu yutuqlarning qo‘lga kiritilishida Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anievich Karimovning tarixiy xizmatlari beqiyos bo‘lganini bugun barchamiz, butun xalqimiz takroran esga olishimiz tabiiydir.

Bugun azim poytaxtimiz Toshkent shahrida, Oqsaroy qarorgohi oldida Islom Abdug‘anievichning haykalini ochdik. 2 sentyabr kuni esa Islom aka tug‘ilib voyaga etgan Samarqand shahrida u kishining haykali ochiladi.

Nasib etsa, 2018 yil 30 yanvarda — u kishi tug‘ilgan kunga 80 yil to‘ladigan sanada Qarshi shahrida Birinchi Prezidentimizga haykal o‘rnatish, Samarqand shahrida yodgorlik majmuasi barpo etish ishlarini to‘la yakuniga etkazib, ularning ham tantanali ochilish marosimlarini o‘tkazamiz.

Bugun barchamiz bir fikrda yakdilmiz: Birinchi Prezidentimizning Vatan va davlat oldidagi buyuk tarixiy xizmatlari, so‘nmas xotirasi xalqimiz qalbida abadiy yashaydi.

YUrtimizda tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning munosib hayot kechirishini ta'minlash borasida bugun oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini biz har tomonlama chuqur anglaymiz.

Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi keskin bir davr barchamizdan yangicha ishlash va fikrlashni, yuqori darajada safarbarlikni talab etmoqda.

Oldimizda turgan ana shu ulkan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik.

Ushbu Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni izchil davom ettirish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi.

Harakatlar strategiyasida «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani albatta bejiz emas.

Birinchiidan, bugungi kunda barcha bo'g'indagi hokimlar, vazirlik va idoralar, prokuratura, sud-huquq va ichki ishlar organlari rahbarlari, deputat va senatorlar bevosita joylarga chiqib, o'z faoliyati bo'yicha xalq oldida hisobot bermoqda.

Mahallama-mahalla, uyma-uy yurib, odamlarning hayotiy muammolarini o'rganmoqda, ularni qonuniy asosda hal qilish uchun amaliy yordam ko'rsatmoqda.

Ikkinchiidan, biz iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish va shu tariqa jahon bozorida munosib va mustahkam o'rin egallashga asosiy e'tibor qaratmoqdamiz.

SHu maqsadda o'tgan qisqa davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida minglab loyihalar amalga oshirilib, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy zavod va fabrikalar barpo etilayotgani, yangi ish o'rinlari tashkil qilinayotganini ta'kidlash lozim.

Bugungi va ertangi taraqqiyotimiz bevosita bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, dehqonlar daromadini ko'paytiradigan, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni etishtirishga investitsiyalar jalb qilinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash maqsadida «Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi» degan tamoyildan kelib chiqib, bugungi kunda yurtimizda ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash uchun yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda.

Eng muhimi, bu soha ming-minglab fuqarolarimiz, avvalo, yoshlarimiz uchun halol mehnat qilib, daromad topish, el farovonligini oshirishda mustahkam zamin bo'layotgani barchamizni xursand qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohalar, ayniqsa, odamlarda eng ko'p e'tiroz uyg'otayotgan sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, tabiiy gaz va elektr energiyasi, ichimlik suvi ta'minoti, kommunal xizmat, yo'l qurilishi sohalarida mavjud ahvolni ijobiy tomonga o'zgartirish, ichki ishlar idoralarining faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlardan ham albatta xabardorsiz.

Uzoq yillardan buyon xalqimizni qiynab kelayotgan o'tkir bir muammo — arzon uy-joylar masalasini hal etish maqsadida biz 2017–2021 yillarga mo'ljallangan alohida dastur qabul qildik.

Ushbu dasturga binoan kelgusi besh yilda 1 ming 136 ta ko'p qavatli, arzon uy-joylar, jumladan, qishloq joylarda yangi namunaviy loyihalar asosida 100 mingdan ortiq turar joy binolari barpo etiladi.

SHu kunlarda faqat qishloq joylarning o'zida joriy yilda qurib bitkazilgan yangi uylarda 5 mingdan ortiq oila hovli to'ylarini o'tkazayotgani albatta hammamizni quvontiradi.

Bu ishlarni izchil davom ettirish haqida gapirar ekanmiz, insonlarning dardu tashvishini o'ylab yashash biz uchun odamiylikning eng oliy mezonini, eng muhim vazifa bo'lib qolishini alohida ta'kidlamoqchiman.

CHunki xalqimiz o'z hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni kelajakda emas, balki bugun ko'rishni, ulardan bugun bahramand bo'lishni istaydi.

Aholimizning ana shunday tabiiy istak va talablarini bajarish barcha rahbar va etakchilarning asosiy burchi va vazifasiga aylanishi shart.

To'rtinchidan, biz parlament va fuqarolik jamiyatining muhim institutlari bo'lgan siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Jumladan, keyingi paytda mahalla tizimi, «Nuroni» jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, yoshlar tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar o'zining dastlabki natijasini berayotganini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgani va bu tashkilotning hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish, unga yangi imtiyoz hamda imkoniyatlar

berish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

CHunki mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish — biz uchun eng muhim masaladir.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining amaliy faoliyati bilan barchamizning, birinchi navbatda, yoshlarimizning umidlarini albatta oqlaydi, deb ishonamiz.

Bugungi davr talabi, xalqimizning xohish va istaklarini inobatga olib, ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'lim tizimi tubdan o'zgartirilib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta tiklanmoqda. Mamlakatimizning qator hududlarida yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta'lim shakllari tiklanmoqda.

SHuningdek, bu borada bizni eng ko'p o'ylantirayotgan masalalardan biri — maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni ana shunday ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz. Ushbu maqsadda ayni kunlarda maxsus davlat dasturi tayyorlanmoqda.

Beshinchidan, respublikamizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash, diniy ekstremizm va terrorizm xavfiga qarshi kurash olib borish bo'yicha ishlar ham yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda.

Hayotda bilib-bilmay adashgan odamlarni to'g'ri yo'lga solish, kechirimli bo'lish, ularni sog'lom hayotga qaytarish masalalari ham diqqat markazimizda turibdi.

Biz bir hayotiy haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak. YA'ni xato qilgan, yo'ldan adashgan odamni «yomon» deb chetga surib qo'ysak, u yomon bo'lib qolaveradi. Yomonni yaxshi qilish, uni do'stga aylantirish — bu faqat sog'lom jamiyatning qo'lidan keladi.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Bu borada amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Ayni vaqtda bunday keng ko‘lamli ishlarimiz biz boshlagan islohotlarning faqat bir qismi, dastlabki qadamlar ekanini ta’kidlash lozim.

Oldimizga qo‘ygan yuksak maqsad va rejalarimizni real natijaga aylantirish uchun hammamiz bor kuch va bilimimizni ayamadan, fidokorona va vijdonan mehnat qilishimiz, tashabbus ko‘rsatib ishlashimiz zarur.

SHuning uchun ham, kelgusi ikki yil bizning faoliyatimizda favqulodda safarbarlikni talab etadigan davr bo‘ladi va bu vazifani barchamiz sidqidildan bajarishni ta’minlashimiz albatta lozim. Xalqimiz bizdan shuni kutayпти.

Bu borada, ayniqsa, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini oshirish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lib qoladi.

Bugun biz mamlakatimizni har tomonlama modernizatsiya qilish, tarkibiy o‘zgarishlar va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash bo‘yicha ulkan ishlarni boshlagan ekanimiz, ularni amalga oshirish tashqi omillarga ham bog‘liq ekanini yaxshi tushunamiz.

SHuning uchun tashqi siyosatimizda uzoq-yaqin davlatlar, eng avvalo, bizga qo‘shni bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin do‘stlik va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Bu boradagi amaliy ishlarimizdan albatta xalqimiz xabardor.

Nazorat savollari:

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” shiorining mazmuni va unda ko‘zda tutilgan islohotlar
2. “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” deb nomlangan prezident nutqining mohiyatining ahamiyati.
3. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” mazmun-mohiyati.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi
6. YAgona darcha xizmatining ahamiyati.
7. Davlat Xizmatlari Agentligi faoliyati.
8. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” mohiyati.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktriya press, 2015.
4. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/

tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

5. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

6. Li Kan YU Iz tretogo mira - v pervyyu. Istoriya Singapura. 1965-2000. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. – 420 s.

IV.AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: “RIVOJLANISH”, “STRATEGIYA”, “KONSEPSIYA” VA “INNOVATSION RIVOJLANISH” TUSHUNCHALARINING MAZMUNI HAMDA TURLI XIL YONDOSHUVLAR

REJA:

1. Strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari.
2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari.
3. O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichi.

“Qanday?” ierarxik diagrammasi



Mavzu bo‘yicha blits-so‘rov savollariga javob berish

1. Ривожланиш стратегияси фанининг қандай вазифаларини биласиз?
2. Ривожланиш стратегияси фанининг ўрганилишдан мақсади нима ?
3. Ривожланиш стратегияси фанининг объекти ҳақида нималарни биласиз?

BBB jadvalini o'ldirish

1. Tayanch ibora va tushunchalar bilan tanishib chiqing.
2. BBB jadvalini to'ldirish uchun tayanch ibora va tushunchalarning tartib raqamidan foydalaning.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	2	3

Tushunchalar tahlili texnologiyasi

Tushunchalar	Mazmuni
Davlat	
Jamiyat	
Fuqaro	
Fuqarolik	
Ideal davlat	

2-mavzu: TARAQQIYOTNING INNOVATSION MODELII

REJA:


1. Taraqqiyotning innovatsion modeli tushunchasi va uning nazariy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining maqsad va vazifalari.
3. O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichida innovatsiyalarning o'rni.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.


F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	
Savol	Ideal davlat tushunchasining Forobiy qarashlarida ifodalanishi
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

Savol	Ideal davlat tushunchasining Platon qarashlarida ifodalanishi
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	



«Ajurli arra» qoidalari

1. Topshiriq va matnni bir necha asosiy qismlarga qir qiladi.
2. Birinchi guruhlar: har bir guruh a'zolari qir qilgan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar.
3. Ekspert guruhlar: Qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhga birlashadilar.
4. Birlamchi guruhlar: o'zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi.




3-MAVZU: O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY, SIYOSIY RIVOJLANISHINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Reja:

1. Taraqqiyotning – o‘zbek modeli yaratilishining siyosiy-ijtimoiy asoslari va konseptual zaminlari.
2. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish asosi.
3. O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning istiqboli.

«Qanday» organayzerini to‘ldiring



“SWOT - tahlil” jadvali


Adam Smit minimal davlat konsepsiyasi	Aleksis de Tokvil amerikacha demokratiya g‘oyasi
Tarbiyalash	CHalg‘ituvchi ob‘ektlar

4-mavzu: “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati


Reja:

1. “Buyuk kelajak dasturi”ning mazmun-mohiyati
2. “Buyuk kelajak dasturi”ning mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishda o‘rni va roli
3. “Buyuk kelajak dasturi”ning ahamiyati.

“Nima uchun?” organayzerini to‘ldiring




Venn diagrammasi



5-mavzu: “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” konseptual g‘oyalari - O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ko‘zda tutilgan islohotlarni hayotga tadbqiq etishning asosi

Reja:

1. “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” shiorining mazmuni va unda ko‘zda tutilgan islohotlar.
2. “Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” deb nomlangan prezident nutqining mohiyatining ahamiyati.
3. “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” mazmun-mohiyati.



Blits-so‘rov

№	Savollar	Javoblar
1.	“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” tushunchasi?	
2.	Harakatlar strategiyasining mohiyati nima?	
3.	Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik deganda nimalarni tushunasiz?	
4.	“Xalq davlat idralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” iborani izohlang?	
5.	“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” iborani izohlang?	

Konseptual jadval

YOndashuvlar	Tavsiflar		
	Formatsion	Sivilizatsion	Modernizatsion

IV. KEYSLAR BANKI

Keys-stadi: Jamiyat barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy-g'oyaviy asoslari o'zaro mosligi nimalarda aks etadi?

1-keys

Mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotga asos bo'luvchi bosh g'oyamizning o'ziga xos xususiyati nimada?

2-keys

Mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotiga asos bo'luvchi asosiy g'oyalarning ahamiyatli tomoni nimada?

3-keys

Rivojlanishning «O'zbek modeli»ni ijtimoiy taraqqiyotda mafkuraviy jarayon sifatida e'tirof etish mumkinmi?

4-keys

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyoti uchun mafkuraviy jarayonlarda qanday ilg'or g'oyalarni tadbiq etish mumkin?

5-keys

Fuqorolik jamiyati tushunchasi va uning ma'naviy axloqiy negizini O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlariga tayangan holda asoslang.

6-keys

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojiga doir yangicha g'oya va qarashlarning asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.

7-keys

Jamiyat rivojiga sivilizatsion qarashning afzaltomonlarini ilmiy asoslang.

8-keys

I.A.Karimov asarlari asosida demokratik jamiyat rivojining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati bilan bog'likligini tahlil eting.

9-keys

Prezident SH.Mirziyoevning "Xarakatlar strategiyasi" da huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy negizlari va xususiyatlarga oid qanday fikrlarini bilasiz va ularni tahlil eting.

10-keys

O'zbekiston ijtimoiy hayotida amalga oshirilayotgan tub demokratik o'zgarishlarni ahamiyatini qanday baholaysiz?

VI.Glossariy

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Abolitsionizm	(lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQSHda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.	(lat. cancellation) a mass action aimed at the abolition of a law. Participants in the movement, which began at the end of the XVIII century and in the first half of the XIX century in the US to free the Negroes from slavery, were called – the abolitionist.
Avtonomiya	(yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.	(Greek. autos+nomos-self+Law); 1.granting self-government powers to territorial-national structures (region, country) at the level of a single state; 2.Ma Muri - territorial unit; 3.The right to self-government in the activities of some organs (farm, state, party, etc.).
Avtonomiya	(yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.YA gona davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.	(Greek. autos+nomos-self+Law); 1.Granted self-government powers to territorial-national structures (region, country) at the level of a single state; 2.Ma Muri - territorial unit; 3.The right to self-government in the activities of some organs (farm, state, party, etc.).
Agregatsiya	(lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni	(lat.) non-governmental and public organizations

	<p>agregatsiya qilish, ya'ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg'unlashtiriladi va ular o'rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko'riladi</p>	<p>aggregate certain interests, that is, through various discussions and discussions, different interests are harmonized and a certain system of relations is formed between them. In this process, the main and important interests are selected and measures and measures are taken to satisfy them</p>
Advokatura	<p>huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan</p>	<p>the legal institution includes independent, volunteer, professional associations of persons engaged in advisory activities. Your own.Usage provides legal assistance to citizens, foreign citizens, stateless persons, enterprises, institutions, organizations. The law of the Republic of Uzbekistan on advokatura was adopted on December 27, 1996</p>
Adliya	<p>(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama</p>	<p>(Arabic.- Justice) - a term denoting the entire set of judicial institutions, their activities for the implementation of Justice, as well as the judicial office</p>
Alarmizm	<p>intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g'oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yaroviy, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi</p>	<p>intellekt modern ideological flow uniting professionals and experts. It is a global problem that poses a threat-ecological, environmental v.the x. -</p>

		warn ontiradi
Amnistiya	jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi	the release of persons guilty of a crime from criminal liability in full or in part, as well as the removal of conviction from persons who have previously passed the sentence established by the court. The amnesty act has a normative nature, that is, it applies to all persons who meet the requirements established by the amnesty act
Anaxronizm	(yunon. ana-orqaga,chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo'yish	(Greek. ana-back,chromos-time, time); to replace events or events of one period with another without error
Artikulyasiya	(lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirishjarayonini anglatadi	(lat.) non-governmental and public organizations mean the process of transforming the views, social experiences and expectations of the individ and social groups into clear and informed goals and requirements
Bozor iqtisodiyoti	tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir	it is an economic system that is organized and managed in accordance with the laws of commodity production, turnover and monetary circulation
Bozor mexanizmi	bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni	it is the support and tools that ensure the regulation of the functioning of the

	uygʻunlashtirishni taʼminlaydigan dastak va vositalardir	market economy and the harmonization of economic processes
Vatanparvarlik	Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yoʻlida fidoiylik koʻrsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-gʻayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuygʻudir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yoʻlida fidoiylik namunalarini koʻrsatishga qodir boʻlgan shaxslarga xos fazilat	Freedom and prosperity of the motherland, inviolability of its borders, self-sacrifice for the protection of its independence, the strength, knowledge and experience for the honor, glory, happiness of the Native people is a human feeling, which symbolizes the most sacred and noble activity in the world as a gift of all life. Patriotism is a virtue inherent in Persons with a deep respect for the history and fate of the native land, people, capable of showing examples of self-sacrifice in the interests of Vatan
Vijdon erkinligi	fuqarolarning istagan dinga eʼtiqod qilish yoki hech qanday dinga eʼtiqod qilmaslik huquqi	the right of citizens to the religion they want or not to any religion
Gumanizm	(insonparvarlik) – tenglik, adolat, oʻzaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun gʻamxoʻrlik qilish gʻoyalari singdirilgan dunyoqarash	(humanism) – integrated worldview of ideas of equality, justice, mutual respect, pursuit of human dignity, care for the well-being of people
Demokratik institutlar	jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi	democratic principle in the life of societyillarni a complex of organizations and structures that serve to find a decision

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

- 1.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
- 2.Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
- 3.Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
- 4.Mirziyoev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
- 5.Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

- 1.David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
- 2.English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
- 3.H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
- 4.H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
- 6.Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
- 7.Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
- 8.Belogurov A.YU. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
- 9.Boris Kapustin Grajdanstvo i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”. 2011. — 224 s.
- 10.Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. — Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
- 11.D.Dj.Grin Vozvrasheniye v grajdanskoe obshchestvo: sotsialnoye obespecheniye bez uchastiya gosudarstva. — M.: “Novoye izdatelstvo”. 2008, — 220 s.
- 12.Djim L. Koen, Endryu Arato Grajdanskoe obshchestvo i politicheskaya teoriya. — M.: “Ves mir”, 2011. — 784 s.
- 13.Djon Kin Demokratiya i grajdanskoe obshchestvo. — M.: “Progress -Traditsiya”, 2001. — 400 s.
- 14.J.Mavlonov Kommunikativnyye osnovy deyatelnosti institutov grajdanskogo obshchestva: tendentsii i innovatsii (Monografiya) - T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. 12 b.t.
- 15.Jalilov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari. — T.: Baktriya press, 2015.
- 16.Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.E. Ibraymov. — Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

17. Ishmuhamedov R.J., M. Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
18. Li Kan YU Iz tretego mira - v pervyyu. Istoriya Singapura. 1965-2000. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. – 420 s.
19. M. Bekmurodov va boshq. Xarakterlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari, – T.: “G'ofur G'ulom NMIU”. 2017, - 236 b.
20. Moxammad Xotami Islam, dialog i grajdanskoe obshchestvo. – M.: “ROSSPEN”. 2001. – 242 s.
21. Mualliflar jamoasi. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati (Uslubiy qo'llanma) – T.: “Info Capital Group”, 2019. – 432 b.
22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
23. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. YU. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO «UrFU im. pervogo Prezidenta Rossii B.N.Elsina», Nijnetagil. texnol. in-t (fil.). – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
24. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
25. R. Xasanov, A. O'tamurodov Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot (O'quv qo'llanma) – T.: 2016. 14 b.t.
26. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.YU. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
27. Trudnym putyom demokratii: Protsess gosudarstvennogo upravleniya v SSHA (Perevod s ang. A.N.Kulik). – M.: “ROSSPEN”, 2006. – 656 s.
28. U. Bo'taev Jamiyat barqarorligi: O'zbekiston tajribasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017. 11.9 b.t.
29. Uil Kimlika Sovremennaya politicheskaya filosofiya. Vvedenie. – M.: “Vysshaya shkola ekonomiki”, 2013. – 585 s.
30. Usmonov B.SH., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
31. O'tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati (O'quv qo'llanma) – T.: “Universitet”, 2018. 21 b.t.
32. O'tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. – T.: “Turon-Zamin-Ziyo”. 2017. 23 b.t.
33. O'tamurodov A. va boshq. Fuqarolik jamiyati: G'oyalar evolyusiyasi (SHarq va

Gʻarb mutafakkirlari talqinida). Lotin yozuvida. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 96 b.

34. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyixasi – T.: 2016. Ziyonet.uz Mualliflar jamoasi.

35. Xakimov N.X., Sadikov A.K. Strategiya razvitiya strany. Grajdanskoe obshchestvo (Uchebnoe posobie) - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 252 s.

IV. Internet saytlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi: www.edu.uz.

2. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

3. [www. Ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.uz)

4. Открытое образование. <https://openedu.ru/>

5. <https://foxford.ru/wiki/obshchestvoznanie/grazhdanskoe-obshchestvo>

6. <https://www.linguee.com/russian-english/translation>

7. https://enc.for.uz/w/index.php?title=Fuqarolik_jamiyati&variant=uz-cyrl

8. <http://www.uzbekembassy.ir/Development.aspx>

9. <https://icscentre.org/tag/civil-society/>